



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT  
XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK  
TA'MINLASH KAFEDRASI**

**TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA  
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

**uslubiy qo'llanma**

**Toshkent - 2024**

КБК: 74.2

M-22

**«Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar» nomli uslubiy qo’llanma.** – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti – T: Jamoat xavfsizligi universiteti nashriyoti, 2024-yil 92-bet.

**Tuzuvchilar:**

- D.M.Mamatkulov  
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
- Z.Sh.Alimardonov  
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi boshlig‘i podpolkovnik, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- G.Z.Ikmatullaev  
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari podpolkovnik, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Taqrizchilar:**

- R.M.Maxmudov  
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori, professor
- K.J.Tulenova  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

Mazkur uslubiy qo’llanmada harbiy ta’lim va tarbiya jarayonida qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalar, usullar, trening va didaktik o‘yinlarning ilmiy-nazariy va tashkiliy-pedagogik jihatlari yoritilgan.

Mazkur pedagogik texnologiyalarni jamlashdan asosiy maqsad ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo’llash orqali kursantlarga ta’lim berishning zamonaviy sharoitlarini yaratish hamda ularni xizmat faoliyatida tarbiyaviy-psixologik va maxsus bilimlar bilan quollantirish hisoblanadi.

Mazkur uslubiy qo’llanma O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Metodik Kengashining 2024-yil 28-fevraldaggi 6-son bayonnomaga qarori bilan tasdiqlanib, nashrga tavsiya etilgan.

© «Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash» kafedrasi, 2024-yil



## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>5</b>
<b>I BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TURLAR.....</b>	<b>8</b>
1.1-§. «Innovatsion texnologiya»lar tushunchasi.....	8
1.2-§. «Interaktiv ma'ruza» va uni qo'llash texnologiyasi.....	12
1.3-§. «Zinama-zina» texnologiyasi.....	17
1.4-§. «Charxpalak» texnologiyasi.....	20
1.5-§. «Bumerang» texnologiyasi.....	23
1.6-§. Guruh bo'lib ishlash texnologiyasi.....	25
1.7-§. «Uchga to'rt» («3 x 4») texnologiyasi.....	27
1.8-§. «Rezyume» texnologiyasi.....	30
1.9-§. «Labirint-1» texnologiyasi.....	32
1.10-§. «Labirint-2» texnologiyasi («Keys-stadi» asosida).....	35
1.11-§. «FSMU» texnologiyasi.....	39
1.12-§. «Muammo va yechim» texnologiyasi.....	41
1.13-§. «Yelpig'ich» texnologiyasi.....	43
1.14-§. «Chorraha» texnologiyasi.....	45
1.15-§. «Assesment» texnologiyasi.....	48
<b>II BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK USULLAR TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TURLARI.....</b>	<b>52</b>
2.1-§. «SCORE» interfaol usuli.....	52
2.2-§. «Interfaol suhbat» usuli.....	56
2.3-§. «Blok-so'rov» usuli.....	59
2.4-§. «Tushunchalar tahlili» usuli.....	62
<b>III BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TRENING VA DIDAKTIK O'YINLAR TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TURLARI.....</b>	<b>65</b>
3.1-§. «Kontakt» - jamoaviy hikoya tuzish» treningi.....	65
3.2-§. «Pedagogiada» treningi.....	67
3.3-§. «Panorama» treningi.....	69
3.4-§. «Sahna» treningi.....	72

3.5-§. «Konsensus va konfrontatsiya» rolli-ishchan o‘yini.....	74
3.6-§. «Bo‘lajak vatan posbonlari» o‘yin musobaqasi dasturi.....	77
3.7-§. «Men askar bo‘laman» o‘yin-musobaqasi dasturi.....	82
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>86</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>93</b>

## KIRISH

«*O‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi»*  
*Shavkat Mirziyoev*

Yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ygan O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, xavfsizligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan. Vatanimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgach qisqa vaqt ichida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li asrlarga arzигulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va jamiyatda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy yangilanishning muhim sub’ekti bo‘lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Ta’kidlash lozimki, yoshlarni barkamol avlod qilib shakllantirish jarayoni pedagogika fanining «nimani o‘qitamiz», «qanday o‘qitamiz», «qanday baholaymiz» kabi fundamental savollariga javob berilishiga bevosita bog‘liq.

O‘z vaqtida mazkur savollarga qadimgi tamaddunlar, Antik Yunon plasteralari, Qadimgi Rimning grammatika va ritorika maktablari, Qadimgi Sharq: Eron, Turon, Xindiston va Xitoy maktablarida uzlucksiz javob izlangan. Jumladan, «Qur’oni Karimda ilk nozil bo‘lgan «Iqro’ bismi robbika» ya’ni «O‘qi!», «O‘qi!», «O‘qi!» oyati ham yuqoridagi savollarga javob tariqasida kelgan.

Insoniyatning uzoq ming yillik taraqqiyoti davomida pedagogikaning «nimani o‘qitamiz», «qanday o‘qitamiz», «qanday baholaymiz» kabi fundamental savollariga atroflicha javoblar shakllangan. Jumladan, «nimani o‘qitamiz» savoli bo‘yicha «didaktika – ta’lim nazariyasi, ta’lim metodologiyasi, davlat ta’lim standarti (DTS), davlat talablari, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-uslubiy majmular, dars taqdimoti (slayd)larning shakl va mazmuni;

«Qanday o‘qitamiz» savoli bo‘yicha ta’lim shakllari (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy), dars mashg‘ulotlarining turlari (ma’ruza, amaliy, seminar, labaratoriya), dars o‘tish (an’anaviy, no’ananaviy) metodikalarning shakl va mazmuni;

«Qanday baholaymiz» savoli bo‘yicha testologiya, pedagogik kvalimetriya (baholash nazariyalari); og‘zaki, yozma, test, amaliy kabi baholash shakllari, joriy, oraliq va yakuniy kabi baholash turlarining shakl va mazmuni yuqoridagi savollarga bevosita javob sifatida yuzaga kelgan.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi? Nima uchun bizning davrimizda «ilg‘or pedagogik texnologiyalar»ga bo‘lgan talab ortib bormoqda? Bu talab ish beruvchining «injiqligimi» yoki zaruriy ehtiyojmi?

Ta’kidlash kerakki, Amerikalik olimlar tomonidan yaratilgan avlodlar nazariyasiga ko‘ra 34 yoshgacha bo‘lgan avlod «Y» va «Z» avlod bo‘lib, ular o‘zidan avvalgi «X» avlodlaridan diqqatining tarqoqligi, aqliy-takabburligi, o‘qish va mehnat faoliyatida qiziqishning tez so‘nishi, «aql»li texnologiyalarga tobelligi bilan ajralib turadi.

Insoniyat taraqqiyotida mana shunday xususiyatga ega avlodni shakllanayotgani bois ham endilikda, ta’lim sohasida ular bilan olib boriladigan ishlarda yangicha yondashuv, ilg‘or pedagogik usul va texnologiyalar talab etilmoqda.

Shu o‘rinda ilg‘or pedagogik texnologiyaning o‘zi ham yaxlid yagona narsa emasligini, uning quyidagi turlari mavjudligini eslatib o‘tmoqchimiz. Ular:

- 1) Pedagogik enerjayderlar;
- 2) Pedagogik texnologiyalar;
- 3) Pedagogik usullar;
- 4) Pedagogik improvizatsiya.

Mazkur ilg‘or pedagogik texnologiyalar o‘zining maqsadi, mazmuni, shakli hamda qo‘llanilish joyi va vaqtiga qarab albatta bir-biridan farq qiladi. Shu o‘rinda barcha farqli jihatlarining mazmuniga to‘xtalib o‘tirmagan xolda ularning birgina maqsadini aniqlashtiradigan bo‘lsak:

Pedagogik enerjayderlarning maqsadi – jamoani muhitga moslashtirish, jamoaga kayfiyat berish, «uyg‘otish»;

Pedagogik texnologiyalarning maqsadi – ta’lim berish, mashg‘ulotni to‘liq qamrab olish, bosqichma-bosqich natijaga erishish;

Pedagogik usullarning maqsadi – ta’lim berish, mashg‘ulot mavzusidagi eng «og‘ir» nuqtani oson yo‘l bilan yetkazish;

Pedagogik improvizatsiyaning maqsadi – muhitga moslashtirish, kayfiyat berish, bilimga qiziqish uyg‘otish va ta’lim berish hisoblanadi.

Yuqoridagi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha asosiy eslatmani keltiradigan bo‘lsak, albatta dars jarayoni pedagogik texnologiyalarga emas, pedagogik texnologiyalar dars natijadorligiga xizmat qilishi zarur! Mazkur qoida ta’lim-tarbiya jarayoniga mas’ul bo‘lgan har bir shaxsning diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim.

«Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar» nomli uslubiy qo‘llanmaning **maqsadi** harbiy ta’lim muassasalarida ta’limiy va tarbiyaviy ishlar bilan shug‘illanuvchi pedagog va ofitser kadrlarga ilg‘or pedagogik texnologiyalar to‘g‘risida tushuncha berish, ularni ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, tayyorlash, o‘tkazish va tahlil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti bilan tanishtirish, shuningdek amaliyotda qo‘llay olishlariga zamin yaratishga yo‘naltirilgan.

Uslubiy qo‘llanma shaxsiy tarkib bilan ishslash jarayonida treninglar, ochiq munozaralar o‘tkazishda, yakka tartibda, juftlikda va jamoaviy ishslashni tashkil qilishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiya va maslahatlarni qamrab olgan. Shu bilan bir qatorda, to‘plamda ta’lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikalari bo‘yicha ham namunalar keltirilgan.

Uslubiy qo‘llanma harbiy ta’lim muassasalarida ta’limiy va tarbiyaviy ishlar bilan shug‘illanuvchi pedagog va ofitser kadrlarga pedagogik texnologiyalar mazmunini tushunishlari hamda amalda qo‘llashlarida o‘zining ijobiy samarasini beradi, deya umid qilamiz.

# I BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TURLARI

## 1.1-§. «Innovatsion texnologiya»lar tushunchasi

Ta'limiy va tarbiyaviy ishlar bilan shug'illanuvchi pedagog va ofitserlarga bo'ysunuvidagi shaxsiy tarkibning ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv-tarbiya jarayonida qo'llay olishi kerak. Ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish, shuningdek, usul, metod va texnologiya tushunchalarining farqlay olishlari, «Aqliy hujum», «Tarmoqlar» (Klaster) «Assesment» metodlari, «Bumerang», «Skarabey», «Charxpalak», «Rezyume» «Keys-stadi» va shu kabi texnologiyalar haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalana olishlari lozim.



Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda yoshlarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatib kelinganligi ma'lum. Bunday usul yoshlarda mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon bermasligi aniq.

Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol usullar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni yoshlar tomonidan

o‘zлариqidirib topishlari, mustaqil o‘rganib, ularni tahlil qilishlari, o‘z bilimlarini baholashlari, to‘g‘ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. Ta’limiy va tarbiyaviy ishlar bilan shug‘illanuvchi pedagog va ofitserlar bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab safdoshlari bilan o‘zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv-tarbiya jarayonida barcha toifadagi harbiy xizmatchi va pedagoglar markaziy ishtirokchiga aylanadi.

O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi ta’limiy va tarbiyaviy ishlar bilan shug‘illanuvchi pedagog va ofitserlarining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi shaxs tabiatidan kelib chiqqan holda shaxsiy tarkibni kim tarbiyalayotganligi hamda pedagog va ofitserlari kimni tarbiyalayotganiga bog‘liq.

Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar shaxsiy tarkibning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

**Innovatsiya** (inglizcha *innovation*) - yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o‘zgartirish demakdir.

**Interfaol** («**Inter**» - bu o‘zaro, «**act**» - harakat qilmoq) - o‘zaro harakat qilish (yoki kim biladir suhbatda, muloqotda bo‘lish) ni anglatadi.

Interfaol ta’lim, interfaol, muntazam muloqotga asoslangan, yoshlarning hamkorlikda, faol ishtirokini ta’minlaydigan ta’limiy usullar tizimi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, **o‘qitishning interfaol usullari** - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usullarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitserlari va shaxsiy

tarkibning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq, ketma-ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, yoshlarning ehtiyojidan va texnik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyhalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishilishi uchun hamkorlikdagi faoliyat, qo‘yilgan maqsad, tanlagan mazmun, usul, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq.

Texnologiya - ishlab chiqarish jarayoni, pedagogik texnologiya esa - yaxlit pedagogik jarayondir. **Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari:** loyhalashtirish, amalga oshirish, kafolatli natija. Pedagogik texnologiyaning **tub mohiyati** – kafolatlangan natijaga yo‘nalganligi. Har bir texnologiya, shu jumladan, pedagogik texnologiya ham o‘zining **mezonlariga** ega: konseptuallik, tizimlilik, samaradorlik, boshqaruvchanlik, qayta tiklanuvchanlik. Pedagogik texnologiyani o‘quv jarayonida umumpedagogik, xususiy-metodik, modulli yo‘nalishlarda **qo‘llash darajalari** aniqlangan. Har qanday texnologiya biron bir g‘oyani, ilmiy fikr yoki nazariyani hayotga tatbiq etib, uni amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

Ishlash jarayonida maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlanishi ishlarni olib borayotganlar ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlatiladigan texnologiya shaxsiy tarkibning bilim saviyasi, guruh tabiatи, va sharoitga qarab tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishslash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo‘lar. Bularning hammasi ushbu ishlarni tashkil etuvchilarga bog‘liq. Shu bilan birga mazkur jarayonni oldindan loyhalashtirish zarur. Bu jarayonda tashkillashtiruvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomoni, joy va sharoiti, eng asosiysi, shaxsiy tarkibning imkoniyat va ehtiyojini shuningdek, faoliyatni hamkorlikda tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina zarur kafolatlangan

natijaga erishish mumkin.

**O‘quv va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni qo‘llash.** O‘quv va tarbiya jarayonida bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy usullarning qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini, shuningdek mashg‘ulotni olib boruvchiga nisbatan hurmatini kuchaytiradi.

Ushbu to‘plamdan foydalanuvchilar o‘quv va tarbiya jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan pedagogik texnologiya va interaktiv usullarni xuddi shu tartibda, o‘tkazishlari shart emas. Har qaysi foydalanuvchi bu tavsiyalarning umumiyligi shaklini olgan holda o‘zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan pedagogik texnologiya va interaktiv metodlarning to‘liq yoki ularning ba’zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin.

## **1.2-§. «Interaktiv ma’ruza» va uni qo’llash texnologiyasi**

Barcha oliy ta’lim muassasalari qatori oliy harbiy ta’lim muassasalarida ham ta’lim jarayoni auditoriya mashg‘ulotlarining ma’ruza, munozara va amaliy mashg‘ulot kabi turlariga asoslanadi. Ma’ruza mashg‘uloti aniq mavzu bo‘yicha ma’lumotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etishning umum qabul qilgan turi bo‘lib, unda tizimli, izchil va mantiqiy ravishda nazariy xarakterdagi materiallar ma’ruzachi tomonidan kursantlarga yetkaziladi. Auditoriya mashg‘ulotlarining boshqa turlari bilan taqqoslanganda ko‘pgina ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’ruza mashg‘uloti eng qiyin turlardan biri hisoblanadi. Ta’limda ma’ruza mashg‘ulotining quyidagi turlari mavjud:

**Yo‘naltiruvchi ma’ruza** – shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish va ushbu predmet mazmunini o‘zlashtirish bo‘yicha ma’ruzachi bilan kursantning birgalikdagi faoliyatini (shaxsiy, guruhiy yoki jamoaviy) tashkil etishga yo‘naltirilgan ma’ruza.

– **Kirish ma’ruzasi** – keyinchalik o‘rganiladigan materiallar bo‘yicha umumiyo yo‘nalish beruvchi ma’ruza.

– **Refleksiv ma’ruza** – oldin o‘zlashtirilgan mazmun va faoliyat usullari bo‘yicha muammolar hosil qilish, yangi mazmunni o‘zlashtirishda muammoli vaziyatlar keltirib chiqarishga qaratilgan ma’ruza.

– **Vositaviy ma’ruza** – aniq muammolarni yechishda oldin o‘zlashtirilgan bilimlardan foydalanish bo‘yicha tasavvurlar hosil qilishga yo‘naltirilgan ma’ruza.

– **Umumlashtiruvchi ma’ruza** – kurs yakunida barcha o‘rganilgan materiallar bo‘yicha qisqa xulosalar chiqarilib, kursantlar tomonidan materiallarni diqqat bilan tinglashlari, qabul qilishlari, tahlil qilib baholashlariga qaratilgan ma’ruza.

– **Axborot yoki «joriy» ma’ruza** – u yoki bu axborotlarni yetkazishda foydalaniladigan ma’ruza.

- **Muammoli ma’ruza** – real hayotdagi qarama-qarshiliklar modellashtiriladigan ma’ruza.
- **Juftlik (binar) ma’ruza** – ikki ma’ruzachi ishtirokidagi ma’ruza. Bunda har bir ma’ruzachi aniq rol o‘ynaydi. Masalan, biri ma’ruzachi sifatida ishtirok etsa, ikkinchisi tanqidchi, ekspert yoki muammolarni keltirib chiqaruvchi sifatida qatnashadi.
- **Ma’ruza-maslahat** – kursantlar tomonidan oldindan shakllantirilgan savollar bo‘yicha ma’ruza.
- **Matbuot-anjuman-ma’ruza** – ma’ruza mazmuni kursantlar savollari asosida yaratiladi, lekin bir necha ma’ruzachilar tomonidan o‘tkaziladi.
- **Reja asosida xatolar kiritilgan ma’ruza** – Bunday ma’ruzalarda ma’ruzachi rejali holda ataydan xatolarga yo‘l qo‘yib, kursantlarning diqqatini tortadi. U kursantlar tomonidan ma’ruza materiallarini diqqat bilan tinglashlari, qabul qilib o‘zlashtirishlari, tahlil qilib baholashlari, axborot mazmunidan erkin va tezkor foydalana olishlariga yo‘naltiriladi.
- **Ma’ruza-dialog** – ma’ruza mazmuni bir qator savollar yordamida yetkaziladi va savollarga kursantlar tomonidan javob berishlari talab etiladi.

Bugungi kunda, oliy harbiy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonida ma’ruza metodining haqiqiy o‘rni qanday?

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi, demokratik va huquqiy davlatning rivojlanishi keng umummadaniyatli dunyoqarashni, kadrlar malakasini qayta tayyorlashni, zamon talablari ruhida o‘zini takomillashtirib borishini talab etadi. Mana shunday sharoitda oliy harbiy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonida ma’ruza mashg‘ulotlariniio‘rni qanday bo‘lmog‘i lozim? An’anaviy usuldagagi ma’ruzalar kursantlar ehtiyojini qondiradimi?

Hozirgi kunda ta’lim berish uslubi sifatida ma’ruzalarga qarama-qarshi holda video va kinotexnika, televideniya, multimedia vositalari,

bahs va munozaralar, suhbat, anjumanlar, «aylanma stol», og‘zaki jurnal, rolli o‘yinlar va shu kabi o‘nlab interaktiv uslublar qo‘llanmoqda.

Aytish lozimki, hozirgi zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalari ma’ruza o‘rnini bosa olmaydi. Chunki, zamonaviy axborot texnologiyalari fanning ilmiy va tarbiyaviy xususiyatlari, auditoriya holati, bilishning psixologik qonuniyatları, kursantlarning eshitgan ma’lumotlarini qayta ishlash imkoniyatlari, ularning dunyoqarashi, hissiyoti va e’tiqodini bir vaqtda hisobga ola olmaydi. Mazkur jihatlar «jonli» ma’ruza jarayonida, mahoratli ma’ruzachi tomonidangina xis qilinadi.

Darhaqiqat, ma’ruza o‘qiyotgan professor-o‘qituvchi kursantlarga «jonli» bilimni yetkazadi, ya’ni u mavzu bo‘yicha axborot yoki ma’lumot bermaydi, u olim, o‘z sohasini egasi, targ‘ibot qiluvchi notiq va auditoriyani to‘liq his qiluvchi tarbiyachi sifatida chiqish qiladi.

Ma’ruza metodi katta hajmli, mantiqiy tuzilishi, obrazlari, isboti va umumlashtirishi anchagina murakkab bo‘lgan o‘quv materiallariga nisbatan qo‘llanilganda yaxshi samara beradi. Lekin, unda monotonik ritm hamda yakkalik nuqtai-nazar va pozitsiyaning ustuvorlashib qolishi ta’lim jarayoni samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shunga ko‘ra bugungi kunda an’anaviy ma’ruza metodini interaktivligini oshirish, uni hozirgi davr ta’lim jarayoniga moslashtirish juda zarur hisoblanadi. An’anaviy ma’ruza metodi hozirgi davr ta’lim tamoyillariga moslashtirilib, unda monotonik ritm hamda yakkalik nuqtai-nazar ustuvorligi bartaraf etilsa, bugungi kun uchun yangi metod – interaktiv ma’ruza metodi xosil bo‘ladi.

**Interaktiv ma’ruza** bu – an’anaviy ma’ruza mashg‘ulotidan farqli ravishda vaqt me’yordan unumli foydalangan xolda auditoriya bilan faol muloqotga kirishiladigan ma’ruza mashg‘uloti hisoblanadi. Interaktiv ma’ruzani tashkil etishning to‘qqizta sharti mavjud. Ular quyidagilar:

**1) Kursantlar fikrini «konsentratsiya» qilish, markazlashtirish.** Ya’ni, mavzuga nisbatan auditoriya fikrini jamlash. Bunda asosiy maqsad kunsantlar fikrini shunchaki jamlash emas, balki

ularda yangi fikrlarni vujudga keltirish hisoblanadi. Mazkur shartni bevosita dars mavzusiga bog‘laydigan bo‘lsak, unda kursantlarga dars mavzusi bo‘yicha topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni bajarishda markerlar va turli rangdagi A4 shakldagi qog‘ozlar kerak bo‘ladi. Ular orqali kursantlarning fikrlari qog‘ozga tushiriladi va auditoriyaning ko‘zga tashlanadigan joyida jamlanadi.

**2) Rasmlar bilan ishslash orqali mavzuni obrazli qilib yoritib berish.** Bunda ma’ruzada ishlataladigan rasmlar orqali tinglovchilarda mavzuni vizual anglash imkonini hosil qilinadi. Bu shart orqali ma’ruzachi mavzuning «mag‘zi», ilmiy «yadrosi»ni oldindan tayyorlab qo‘yilgan elektron yoki qog‘oz shaklidagi rasm, jadval yoki diagrammalar orqali obrazli qilib ifodalaydi.

**3) Qisqa matndan foydalanish.** Bunda katta xajmli matnlardan qochiladi, ma’ruza mazmuni eng minimal darajadagi qisqa matnda ifodalangan holda qolgan tafsilotlar o‘zaro muloqot orqali ochib beriladi (qarang: 1-rasmda ma’naviyat tushunchasiga berilgan ta’rif matni minimal darajada qisqa qilib ifodalangan).

**4) Har bir nazariy ma’lumotni misol bilan asoslash.** Unda mavzu nazariyasi hayot bilan bog‘lanadi, tinglovchida mavzu nazariyasi bo‘yicha aniq tassavvur xosil qilinadi. Nazariy ma’lumotni misollar bilan asoslash mavzudagi yangi g‘oyalarni tushintirishda mavhumlikni yo‘qotadi. Bu shartda yuqorida «Ma’naviyat tushunchasi va uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati» mavzusiidagi nazariy ma’lumotlar aniq hayotiy misollarga bog‘lab tushuntiriladi.

**5) Ma’ruzaning har 3-5 minuti oralig‘ida tinglovchilarga kichik vazifalar berish.** Bunda tinglovchilar sergaklantiriladi hamda olingan nazariy bilimlarni amaliyatda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalari rivojlantiriladi;

**6) Mavzu «mag‘zini», ilmiy «yadrosini» yetkazib berish.** Bunda ma’ruzadagi «muhimlar ichida eng muhimi»ga e’tibor qaratiladi. Tinglovchilarga ma’ruza tafsilotlari emas, mavzuning ilmiy «yadrosi» yetkaziladi;

**7) Tinglovchilar ishtirokida har bir ma'lumotni xulosalab borish.** Bunda tinglovchilardan berilgan ma'lumotlarni aynan qaysi punkitlari muhimligi to'g'risida xulosalar olinadi;

**8) Ma'ruzadagi yondashuv (berilayotgan yangi g'oya, yangi tushuncha) bo'yicha qarshi fikrlar bo'lishi mumkinligini aytish va hisobga olish.** Bunda professor-o'qituvchi o'z bildirayotgan fikrlar eng so'ngi xaqiqat emasligini, undan boshqa variantda ham fikrlar bo'lishi mumkinligini aytadi. Bu tinglovchilarda tanqidiy nuqtai-nazar va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

**9) Fidbek.** Ma'ruza so'ngida mavzu bo'yicha tinglovchilar munosabati va xulosasini aniqlash. Bunda ma'ruzagaga tinglovchilar ishtirokida umumiylashtirish xulosa yasaladi. Xulosada mavzuning eng ahamiyatli punktlari, tinglovchini qoriqitgan yoki uni mulohazaga chorlagan qismlari, mavzuni amaliyotda qo'llash masalalari bo'yicha fikr yuritilishi mumkin.

Ta'kidlash kerakki, ayrim professor-o'qituvchilar o'qitishning interaktiv uslublari deganda faqat zamonaviy o'quv-vizual materiallardan hamda zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, elektron doskalar va boshqalar)dan foydalanish kabilarni tushunishadi. Albatta, bu to'g'ri fikr emas. Yuqorida fikrlarga tayangan xolda aytish mumkinki, interaktiv uslubni xattoki ma'ruzada ham qo'llash mumkin. Interaktiv ma'ruza avvalgi o'qitishning «nofaol» usulidan «faol» usuliga o'tmoqni, ma'ruzani bahs, munozara, suhbat, muhokama hamda amaliy ishlar uyg'unligi shaklida tashkil etmoqni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda ob'ektiv bo'limgan jadallashgan axborot oqimi ta'lim oluvchilarga xolis, ilmiy ma'lumotlarni mustaqil olishi, qayta ishlashi va undan tegishli xulosa chiqarish jarayonini nisbatan qiynlashtirmoqda. Mana shunday sharoitda ma'ruza mashg'ulotlarida qo'llaniladigan interaktiv ma'ruzaning ahamiyati beqiyos bo'lib, mazkur metod ta'lim oluvchilarga dars mashg'ulotini bahs, munozara, muhokama shaklida o'tkazishga va shu yo'l bilan mavzu «mag'zini», ilmiy «yadrosini» aniqlash orqali o'zaro yakdil xulosaga kelishlariga nazariy va amaliy jihatdan yordam beradi.

## **1.3-§. «Zinama-zina» texnologiyasi**

### **Texnologiyaning tavsifi.**

Ushbu mashg‘ulot shaxsiy tarkibni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya shaxsiy tarkib bilan bir guruh ichida, yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.



**Texnologiyaning maqsadi.** Shaxsiy tarkibni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullahsga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

**Texnologiyaning qo‘llanishi:** ma’ruza (imkoniyat va sharoit bo‘lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazish hamda nazorat darslarida qo‘llanilishi mumkin.

**Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar:** A-3, A-4 formatli qog‘ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalam)lar.

### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

- mashg‘ulot o‘tuvchi mashg‘ulot boshlangunga qadar o‘quv materialini bir necha kichik mavzularga bo‘lib oladi (masalan, 2 yoki 3

ta, 4 yoki 5 ta ...);

- mashg‘ulot o‘tuvchi shaxsiy tarkibni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo‘lgani ma’qul);
- mashg‘ulot o‘tuvchi shaxsiy tarkibni mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiradi. Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi guruh a’zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog‘ozdagi bo‘sh joyga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;
- guruh a’zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko‘rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a’zolari kichik mavzu bo‘yicha imkon boricha to‘laroq ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi;
- tarqatma materiallar to‘ldirilgach, guruh a’zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi guruhlар tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg‘ulotni yakunlaydi (taqdimot vaqtida boshqa guruh a’zolari ham taqdimot qilingan mazmunga o‘zlarining fikrlarini bildirishlari mumkin).



*Izoh: mashgulotining bunday tashkil etilishi kursantlarni mustaqil fikrlashga, o‘tilgan va o‘zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma*

*ko ‘rinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o‘rgatadi.*

**Masalan: Mavzu: Temperament xususiyatlari.**

Har bir temperament haqida bilganlaringizni ilmiy, nazariy, amaliy tarzda rasmlarda yoki yozma shaklda ifoda eting, psixolog olimlar fikrlari bilan to‘ldiring va boshqalar.

Misol tariqasida:

**Mavzu: Temperament xususiyatlari**

Xolerik

Sangvinik

Melanxolik

Flegmatik

## 1.4-§. «Charxpalak» texnologiyasi

### Texnologiyaning tavsifi.

Ushbu texnologiya shaxsiy tarkibni o‘tilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan shaxsiy tarkibning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.



**Texnologiyaning maqsadi:** shaxsiy tarkibni mashg‘ulot jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatish.

**Texnologiyaning qo‘llanishi:** texnologiya mashg‘ulotlarning barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni shaxsiy tarkib tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg‘ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

**Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar:** tarqatma materiallar, rangli qalam yoki markerlar.

**Izoh:** *reja bo‘yicha belgilangan mavzu asosida hamda mashgulot o‘tuvchi qo‘ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o‘tkazish mo‘ljallangan bo‘lsa, guruh kursantlari soniga, agar kichik guruhlarda o‘tkazish belgilangan bo‘lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).*

### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

- shaxsiy tarkibni (sharoitga qarab) guruhlarga ajratiladi;
- shaxsiy tarkibni mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh, a’zolariga tarqatiladi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi belgilagan vaqt ichida tarqatma materiallardagi vazifalar guruh a’zolari tomonidan yakka tartibda mustaqil ravishda bajariladi;
- har bir guruh a’zosi o‘zi ishlagan tarqatma materialining o‘ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o‘zining biron-bir ramziy belgisini chizib qo‘yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga «charxpalak aylanmasi» yo‘nalishida almashtiriladi;
- boshqa guruh, a’zolarining yakka tartibda bajarilgan vazifalar varaqlari yakka tartibda yangi guruh a’zolari tomonidan o‘rganiladi va o‘zgartirishlar kiritiladi;
- jamoalar tomonidan o‘rganilgan va o‘zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo‘nalish bo‘yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);
- materiallarni oxirgi almashishdan so‘ng har bir guruh va har bir guruh a’zosi o‘zlari ilk bor to‘ldirgan materiallarini (guruh raqami va o‘zlari qo‘ygan ramziy belgilari asosida) tanlab oladilar;
- har bir guruh a’zolarining o‘zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a’zolarining to‘zatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;
- mashg‘ulot o‘tuvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda to‘g‘ri javoblarni belgilaydi yoki (sharoitga qarab) tarqatma materialdagи vazifalar ekranda yoritilib, ekran orqali to‘g‘ri javoblar o‘qib eshittiriladi;
- har bir kursant to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to‘playdilar va o‘zlarini baholaydilar.

**Izoh:** *tarqatma materialda kursantlar belgilagan to‘g‘ri javoblar bilan mashg‘ulot o‘tuvchi hamkorligida aniqlangan to‘g‘ri javoblarning*

*farqi 0,55 foizdan yuqori bo'lsa, kursant ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa o'zlashtira olmaganligini bildiradi. Masalan, vazifalar soni 30 ta bo'lib, javoblarning 17-20 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa, kursant ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtira olgan, agar undan kam bo'lsa o'zlashtira olmagan hisoblanadi. Shu bilan birga, javoblarning 21-24 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa kursantning materiallarni o'zlashtirganlik darajasi «yaxshi», 25-30 tasi to'g'ri bo'lsa «a'lo» baho deb hisoblanadi.*

kursantlar o'z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, mashg'ulot o'tuvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va baho (ballar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

## 1.5-§. «Bumerang» texnologiyasi

### Texnologiyaning tavsifi.

Ushbu texnologiya shaxsiy tarkibni mashg‘ulot jarayonida, mashg‘ulotdan tashqarida turliadabiyotlar, matnlar bilan ishslash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish hamda mashg‘ulot mobaynida mashg‘ulotni o‘tuvchi tomonidan barcha kursantlarni baholay olishga qaratilgan.



**Texnologiyaning maqsadi.** O‘quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni shaxsiy tarkib tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari, bir-birlariga o‘qilgan axborotlarni to‘liq yetkazish hamda suhbat- munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash, shuningdek, o‘quv jarayoni mobaynida har bir kursant tomonidan o‘z baho (yoki ball)larini egallahsga imkoniyat yaratish.

**Texnologiyaning qo‘llanishi.** Amaliy mashg‘ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg‘ulotlari hamda suhbat-munozara shaklidagi darslar yakka tartibda, kichik guruh, va jamoa shaklida foydalanilishi mumkin.

**Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar.** Kursant dars jarayonida mustaqil o‘qishlari, o‘rganishlari va o‘zlashtirib olishlari uchun mo‘ljallangan tarqatma materiallar (o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha qisqa matnlar, suratlar, ma’lumotlar).

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi.** Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

- o‘quv materiali mavzusini nechta qisqa matnlarga bo‘linishiga qarab kursantlar kichik guruhlarga ajratiladi (guruqlar soni

tarqatiladigan matnlar soniga teng bo‘lishi kerak);

- shaxsiy tarkib darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- shaxsiy tarkibgaga o‘rganiladigan mavzu mazmuniga tegishli kinolavha ko‘rsatiladi: ulardan shu kinolavha asosida mashg‘ulotning mavzusi va mazmunini keltirib chiqarishlari so‘raladi;
- so‘ngra o‘ularning har biriga mustaqil o‘rganishlari uchun mavzu bo‘yicha matnlar tarqatiladi;
- berilgan matnlar kursantlar tomonidan yakka tartibda mustaqil o‘rganiladi;

## 1.6-§. Guruh bo‘lib ishlash texnologiyasi

### Texnologiyaning tavsifi:

- har bir guruh a’zolaridan yangi guruh tashkil etiladi;
- yangi guruh, a’zolarining har biri guruh ichida navbat bilan mustaqil o‘rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya’ni bir-birlariga so‘zlab beradilar, matnni o‘zlashtirib olishlariga erishadilar;
- berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o‘tkaziladi, ya’ni guruh a’zolari bir-birlari bilan savol-javob o‘tkazadilar;
- yangi guruh, a’zolari dastlabki holatdagi guruhlar joyiga qaytadilar;
- darsning qolgan jarayonida kursantlar bilimlarini baholash yoki to‘plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda «guruh hisobchisi» tayinlanadi;
- kursantlar tomonidan barcha matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida mashg‘ulot o‘tuvchi (yoki opponent guruhi) kursantlarga guruhlarga tarqatilgan matnlar mazmunidan kelib chiqib savollar bilan murojaat etadilar, og‘zaki so‘rov o‘tkazadi;
- savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarni to‘plagan umumiyl ballari aniqlanadi; • har bir guruh, a’zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog‘lagan holda bittadan savol tuziladi;
- guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi («guruh hisobchilari» berilgan javoblar bo‘yicha ballarni hisoblab boradilar);



- guruuh a'zolari tomonidan to‘plangan umumiy ballar yig‘indisi aniqlanadi;
- guruuhlar to‘plagan umumiy ballar guruuh a'zolari o‘rtasida teng taqsimланади;

Izoh: *mashg‘ulot o‘tuvchi darsni shu tartibda tugatishi yoki o‘quv materialini kursantlar tomonidan yakka tartibda qanday o‘zlashtirilganini yana bir bor o‘z-o‘ziga baho berish tartibida nazorat qilish uchun «Charxpalak» texnologiyasida ishlatilgan jadvaldan foydalangan holda o‘qilgan va o‘zlashtirilgan matnlar asosida tayyorlangan tarqatma materiallarni kursantlarga tarqatib, o‘z bilimlarini tekshirib olishlariga imkoniyat yaratishi mumkin.*

- mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlar to‘plagan ballarini qayd jurnaliga ko‘chiradi, dars (mashg‘ulot)ni yakunlaydi, vazifa beradi.

## 1.7-§. «Uchga to‘rt» («3 x 4») texnologiyasi

### Texnologiyaning tavsifi:

Ushbu mashg‘ulot ishtirokchilarni aniq bir muammoni (yoki biror mavzuni) yakka holda (yoki kichik jamoa bo‘lib) fikrlab hal etish, yechimini topish, ko‘p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo‘yilgan muammo (yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, o‘z fikrlarini ma’qullay olishga o‘rgatadi.



Bu texnologiya ishtirokchilar bilan avval yakka holda, so‘ngra ularni kichik guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi.

**Texnologiyaning maqsadi:** shaxsiy tarkibni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrashga; jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga; fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o‘z fikrini o‘tkazishga, uni ma’qullahsga; qo‘yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiyl tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

**Texnologiyaning qo‘llanishi:** seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhlarga ajratilgan holda) o‘tkazish hamda guruh, a’zolarini bir necha marta guruh joylarini o‘zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan.

**Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar:** A-3, A-4 formatdagi qog‘oz varaqlari (guruh, soniga qarab), flomaster (yoki rangli qalam).

### Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- mashg‘ulot o‘tuvchi ishtirokchilarning umumiyl soniga qarab, 3-5

kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (kichik guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo‘lgani maqsadga muvofiq);

- ular mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi va har bir kichik guruhga qog‘ozning yuqori qismida yozuvi bo‘lgan varaklarni tarqatadi (masalan, «Ekologiya - bu...», «Marosim - bu...», «Iqtisodiy inqiroz - bu...» va b.q.);
- mashg‘ulot o‘tuvchi kichik guruhlarga tarqatma materialda yozilgan asosiy fikrning davomini faqat uchta fikr, ya’ni uchta so‘z yoki so‘zlar birikmasi yoki uchta gap bilan davom ettirishlari mumkinligini uqtiradi va buni amalga oshirish uchun aniq vaqt belgilaydi;
- guruh a’zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan fikrni yozib davom ettiradilar;
- vazifa bajarilgach, guruh a’zolari o‘rinlaridan turib soat mili yo‘nalishi bo‘yicha joylarini o‘zgartiradilar, ya’ni 1-guruh 2-guruhning, 2 guruh 3-guruhning, 3-guruh esa 4-guruhning, 4-guruh 1-guruhning (boshqa kichik guruhlar bo‘lsa, shu tariqa) o‘rniga o‘tadilar;
- yangi joyga kelgan guruh a’zolari shu yerda qoldirilgan tarqatma materialdagи fikrlar bilan tanishib, unga yana yangi uchtadan o‘z fikrlarini yozib qo‘yadilar;
- guruh a’zolari yana yuqoridagi kabi joylarini o‘zgartiradilar, shu tariqa kichik guruhlar o‘z joylariga qaytib kelgunlariga qadar joylarini almashtirib, tarqatma materiallarga o‘z fikrlarini qo‘shib boradilar;
- o‘z joylariga qaytib kelgan kichik guruhlar tarqatma materialda to‘plangan barcha fikrlarni diqqat bilan o‘qib, ularni umumlashtirgan holda bitta yaxlit ta’rif yoki qoida holatiga keltiradilar;
- har bir kichik guruhning mualliflik ta’riflari yoki qoidalarini guruh a’zolaridan biri taqdimot qiladi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi kichik guruhlar tomonidan berilgan ta’riflar yoki qoidalarga izoh berib, ularni baholaydi, so‘ngra mashg‘ulotni yakunlaydi.

**Izoh:** *Guruhlар тақдимотидан со‘нг ular bergen ta’rif yoki qoidalar asosida kichik guruhlarning har bir a’zosi yakka tartibda o‘zining mualliflik tarifi va qoidasini keltirib chiqarib taqdimot qilishi*

*ham mumkin.*

Kichik guruhlar soni 4 ta bo‘lgani maqsadga muvofiq. Bunday holda kichik guruhlar o‘z joylarini faqat 3 marta almashtiradilar va bu bilan o‘quv jarayonini zerikarli o‘tishining oldi olinadi. Agar kichik guruhlar soni 4 tadan ko‘p bo‘lsa, u holda ularni ikki potokka bo‘lib, kichik guruh a’zolarining almashinuvini har bir potok o‘rtasida alohida, taqdimotni esa birgalikda o‘tkazish mumkin.

Agar auditoriya (yoki sinf) kichik guruhlarning joylarini almashtirishga moslanmagan (yoki almashtirishga noqulayliklar) bo‘lsa, u holda ishtirokchilarni joylarini almashtirish o‘rniga guruhlarga tarqatilgan materiallarni almashtirish 18 orqali, ular dastlabki olingan guruhlarga qaytib kelgunga qadar almashtirilib, kursantlar fikrlari to‘planadi. Ulardan umumiy ta’rif (yoki qoida) keltirib chiqariladi va taqdimot qilinadi.

## **1.8-§. «Rezyume» texnologiyasi**

**Texnologiyaning tavsifi.** Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning alohida elementlari muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

**Texnologiyaning maqsadi:** kursantlarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash usuli yordamida mavzudan kelib chiqqan holda muammoning yechimini topishga, kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechish hamda mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

**Texnologiyaning qo‘llanishi:** ma’ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo‘lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka (yoki kichik guruhlarga ajratilgan) tartibda o‘tkazishda ham qo‘llash mumkin.

**Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar:** A-3 formatdagi qog‘ozlarida (guruh, soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

- mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlarni mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhgaga qog‘ozning yuqori qismida yozuvi bo‘lgan, ya’ni asosiy muammo, undan ajratilgan o‘quv muammolari va ularni yechish yo‘llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi;
- har bir guruh, a’zolari o‘zlariga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o‘z fikrlarini

flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;

- kichik guruh, a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;

- mashg'ulot o'tuvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

- mashg'ulot o'tuvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh, berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

#### Kursantlar bilimini nazorat qilish (misol tariqasida)

Kursantlar bilimini nazorat qilish							
Yozma		Og'zaki		Test		Masofali	
Afzal	Kamchil	Afzal	Kamchil	Afzal	Kamchil	Afzal	Kamchil
<b>Xulosa:</b>							

#### Kompyuterdan foydalanish (misol tariqasida)

Kompyuterdan foydalanish	
Afzalligi	Kamchiligi
<b>Xulosa:</b>	

#### Badiiy asarni o'rganish (misol tariqasida)

Badiiy asarni o'rganish							
Asarni o'qib		..filmni ko'rib		O'qiganlardan eshitib		Teatrda ko'rib	
Afzal	Kamchil	Afzal	Kamchil	Afzal	Kamchil	Afzal	Kamchil
<b>Xulosa:</b>							

## 1.9-§. «Labirint-1» texnologiyasi



### Texnologiyaning

**maqsadi:** harbiy xizmatchilarning xizmat va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan o‘z obro‘larini saqlagan holda chiqish, vaziyatni to‘g‘ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimini topish ko‘nikmalarini

shakllantirish, shu boradagi malakalarini oshirishga ko‘maklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy madaniyatini o‘stirish hamda muloqot qilish madaniyatini shakllantirish.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:** mashg‘ulot o‘tuvchi mashg‘ulot boshlanishidan kursantlar uchun stullardan doira shaklida joy tayyorlaydi (doira shaklidagi joyning o‘rtasiga savat (yoki tuvak)dagi guldastani qo‘yish maqsadga muvofiq). Joyning bunday jihozlanishi mashg‘ulot qiziqarli va o‘tishiga yordam beradi. Imkoni bo‘lsa, bunday mashg‘ulot ochiq xavoda, ya’ni tabiat qo‘ynida, yashil maysalar ustida doira shaklida bemalol joylashgan holda o‘tkazilsa yanada samarali va ijobjiy natijali bo‘ladi. Mashg‘ulot o‘tuvchi mashg‘ulot boshlanishi bilan kursantlarni shu davradan joy egallashlarini so‘raydi.

So‘ngra kursantlarning faoliyati rang-barang va hamisha har turli qiziq voqealar, hodisalar, vaziyatlarga boy ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan mashg‘ulotni boshlaydi. Misol tariqasida mashg‘ulot o‘tuvchi, kursantlar faoliyatida uchragan yoki uchraydigan vaziyatlardan biri to‘g‘risida gapirib beradi va shu vaziyatdan chiqish yo‘lini so‘raydi (yoki mashg‘ulot o‘tuvchi vaziyatni aytib, uning uchta yechimini ham aytadi va kursantlardan uchta to‘g‘ri variantdan bittasini tanlashlarini va

nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushuntirib berishlarini so‘raydi. Shundan so‘ng, mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlarni xohishlariga ko‘ra, uch kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi va ularga har bir kichik guruh a’zolari o‘z ish tajribalaridan kelib chiqqan holda, harbiy xizmat va tarbiyaviy jarayonlarda mashg‘ulot o‘tuvchi va kursantlar faoliyatida uchraydigan yoki uchragan biron-bir muammoli vaziyatlarni eslashlari, ulardan eng qiziqrarli, eng muammolisini tanlab, ularning yechimini (vaziyat, muammoning yechimi uch variantdan test yoki aniq bir javobdan iborat bo‘lishi mumkin) ham topib qo‘yish topshirig‘ini beradi.



Mashg‘ulot o‘tuvchi yordamida har bir kichik guruh navbatil bilan o‘zlarini tayyorlagan vaziyat yoki muammolarni boshqalarga og‘zaki bayon etadilar. Kichik guruhlar tomonidan aytilgan vaziyat yoki muammoning yechimini topish uchun mashg‘ulot o‘tuvchi ularga aniq vaqt belgilab beradi. Berilgan vaqt ichida kichik guruh a’zolari vaziyat yoki muammo yechimini topishga harakat qiladilar, vaqt tugagach guruhlarning javoblari tinglanadi. Masalan, avval bir kichik guruh tanlagan vaziyat yoki muammo yana bir marotaba esga tushiriladi va qolgan kichik guruhlar navbatil bilan ushbu vaziyat va muammoga o‘z yechimlarini aytadilar. Barcha kichik guruhlar o‘zlarini tanlagan javoblarini aytib bo‘lishgach, vaziyat yoki muammoni o‘rtaga tashlagan kichik guruhning o‘z to‘g‘ri yechim haqida fikr bildiradi, o‘qituvchi ham shu vaziyat yoki muammoga nisabatan o‘z fikrini bildiradi va barcha kichik guruh tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtiradi. So‘ngra, ikkinchi guruh o‘rtaga tashlagan vaziyat yoki muammoning muhokamasiga o‘tiladi, shu kabi davradagi guruhlar tomonidan o‘rtaga tashlangan barcha vaziyat yoki muammolar muhokamasi o‘tkaziladi.

Mashg‘ulot oxirida mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlar va guruhlar ishiga baho beradi va vaziyat yoki muammolarni yechimini topishda

nimalarga ko‘proq e’tiborni qaratish kerakligi to‘g‘risida tavsiyalar beradi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

**Izoh:** *ushbu texnologiyani o‘quv jarayonida tashkil etiladigan dars (amaliy yoki laboratoriya) mashg‘ulotlarida ham qo‘llash mumkin. Masalan o‘quv predmeti bo‘yicha o‘zlashtirilgan mavzular yoki bo‘limlardan kursant hayotiy faoliyatlarida uchraydigan muammoli vaziyatlar, shuningdek, darsda o‘tilayotgan mavzular ichidagi muammolarning yechimini topish bo‘yicha fikrlarni aniqlashda ushbu texnologiyaning qo‘llanishi kursantlar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada chuqurroq mustahkamlashlariga, ularni amaliyotda qo‘llashlarida yechimini to‘g‘ri topishlariga yordam beradi.*

## **1.10-§. «Labirint-2» texnologiyasi (**«Keys-stadi»** asosida)**

**Texnologiyaning maqsadi:** «Labirint-2» texnologiyasining maqsad, vazifalari, kursantlarni o‘quv xonasida, yoki tabiat qo‘ynida joylashishlari «Labirint-1» texnologiyasi kabi bo‘lishi mumkin, ammo o‘tkazilish tartibi boshqacha tashkil etiladi. Bu texnologiyada kursantlar turli vaziyatlarni topib, ularni barchaga ma’lum qilib keyin kichik guruhlarda uning yechimini topmaydilar, balki ko‘proq hayotiy voqeа, vaziyat, tasodif va hodisalarni «Keysstadi» metodi, ya’ni aniq vaziyat, hodisaga asoslangan o‘qitish metodi (**«Keys-stadi»** inglizcha «sase» - aniq vaziyat, hodisa, «stadi» - o‘qitish) asosida tashkil etiladi. Kursantlar doira shaklidagi stillarga joylashib olishgach, mashg‘ulot o‘tuvchi ularning har biriga (yakka tartibda o‘qib o‘rganishlari uchun) aniq, hayotiy vaziyatlar asosida tuzilgan «keys» materialni tarqatadi.



Kursantlar tarqatilgan materialni avval yakka tartibda o‘qib, tahlil etib, yechimini topishga harakat qiladilar, so‘ngra o‘z joylarida 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etib, birgalikda vaziyatdan chiqish yo‘lini qidiradilar, guruhlardagi muhokama tugagach, har bir guruh o‘z yechimi bilan qolganlarni tanishtiradi so‘ngra hamma jamoa bo‘lib bir to‘xtamga kelishga harakat qilishadi, mashg‘ulot o‘tuvchi bu variantda fikrlarni yo‘naltiruvchi, umumlashtiruvchi rolini bajaradi. Mashg‘ulot oxirida mashg‘ulot o‘tuvchi yakka tartibdagi, kichik guruhlar va jamoa shaklidagi ishlarga o‘z munosabatini bildirib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

**Izoh:** «keys» tarqatma material sifatida yozma ravishda tuzilgan bo‘lishi mumkin yoki (imkoniyati bo‘lsa) ekran orqali aniq; bir hayotiy

*voqea, vaziyatni tomosha qilib, ko 'rilgan lavha mazmunidan kelib chiqib kichik guruhlar avval keys to 'zib keyin uning muhokamasiga o 'tishlari mumkin.*

**Birinchi hayotiy vaziyat** (*oliy ta 'lim muassasalaridagi, misol tariqasida «keys varianti»*):

Hamkasbi bo'lmish yosh o'qituvchilardan birining darsini kuzatib chiqqan Sattor Maxmudovich yarim soatdan beri: - «Bu qanaqa ma'ruza bo'ldi? Kursantlar o'qituvchilaridan ko'p gapirsa! Ma'ruza mashg'ulotini o'tkazish strukturasi yo'q.... uning ustiga reja umuman yodingizdan chiqib ketdi?» - deya kyunib gapirardi.

Sattor Maxmudovich yoshi ulug', katta pedagogik tajriba va malakaga ega bo'lgan o'qituvchilardan biri. U 40 yillik pedagogik faoliyatga ega bo'lganini hisobga olib, unga universitetda o'qitish uslubiyoti bo'yicha faxriy ekspert vazifasi yuklatilgan edi. Shu sababli har kuni Sattor Maxmudovich o'z hamkasblarining darslarini kuzatib tanqidiy fikrlar va qimmatli tavsiyalar berardi.

Mana bugun ham, ko'z kunlarining birida u kishi «Ijtimoiy fanlar» kafedrasining yosh o'qituvchilaridan biri - Botirning darsnii kuzatib chiqqan edi. Botir o'tgan yoz davomida innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar va keys usuliga bag'ishlangan o'quv seminar-treninglarida bo'lib, yangi o'quv yilining birinchi semestridan ish faoliyati va o'qitish usulini butunlay o'zgartirishga qaror qilgan holda yangi o'quv yilin boshlagan edi. Bunday yangicha yondashuv va uslubiyotga kiritilgan o'zgartirish, faxriy ekspertning g'azabini keltirgan edi.

- Nimaga, yoshlar, har doim yangidan velosiped yaratmoqchi bo'lishadi-ya?

Axir «ma'ruza» va «seminar» ni samarali tashkil qilish, o'tkazishning yillar davomida sinovdan o'tgan shakllari bor-ku. Ma'ruza ma'ruzaga seminar esa seminarga o'xhashi kerak-da.

Ma'ruzada bilim berish, seminar mashg'ulotlarida esa talabalardan so'rash kerak. Sizga buni magistraturada o'rgatishgan-ku.

- Lekin bu yangi usullar samaraliroq va qiziqarliroq, - deya e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi Botir.

- Shu paytgacha bo'lgan an'ana va tajribalarga hurmatsizlik qilish kerak emas. Biz bir umr shunday o'qitib kelganmiz. Bundan tashqari..., ishchi dastur, ish reja kabi me'yoriy hujjatlar bor. Sattor Maxmudovich bir qo'l bilan katta ko'zoynakni burnini ustiga qo'ndirib, ikkinchi qo'li bilan papkadan ish rejasini oldi-da: «Mana shu ish rejasи asosida Siz bugungi o'quv materialining beshta savolini yoritishingiz lozim edi,» - dedi. Sizchi, butun bir juftlik mobaynida talabalarning bahsmunozarasin eshitib, faqat ba'zi-ba'zida ularning bahslariga qo'shilib turdingiz. Shu ham ma'ruzami?

- Lekin talabalar qo'shimcha adabiyotlardan o'zлари ham o'qib olishlari mumkin, asosiysi, ularda mavzuga, muammoga nisbatan qiziqish uyg'otish va mustaqil izlanishga o'rgatish kerak. Bu borada innovatsion pedagogik texnologiya va interfaol usullariga yetadigani yo'q. Botir shunday degisi keldi-yu, lekin ekspertning gapini bo'lgisi kelmadi.

Ekspert Sattor Maxmudovich hali ham o'z fikrini bayon etar, yosh novator Botir esa qo'lini iyagiga tiraganicha o'ylanib qoldi: Menga bu g'alvalar nimaga kerak? Hamkasblarim baribir meni tushunishmaydi, yana bir yoqda Sattor Maxmudovich bor....

Balki hammaga o'xshab ishlagan ma'quldir?

Sizning fikringiz?

**Ikkinci hayotiy vaziyat** (*umumiyo'rta ta'lim maktablaridagi, misol tariqasida*):

Sobirjon ajoyib, kamtarin yigit. Maktabda faol, jamoatchi, a'lochi. She'rlari va hikoyalari, nafaqat, tuman, balki viloyat gazeta va jurnallarida e'lon qilib borilmokda. Bu yil 9-sinfni tugatyapti. O'rtoqlari allaqachon kasb-hunar kolleji va akademik litseylarga hujjatlarini topshirishdi. U esa hayron: «Nima qilsam ekan?»

Yoshligida otasi og'ir betob bo'lib, bevaqt olamdan o'tganida, «Katta bo'lganimda, albatta, shifokor bo'laman!» deb o'ylagandi.

Ammo oilasida moddiy yetishmovchilik ko‘p bo‘lganligi sababli onasi o‘g‘lini ishga joylashtirib qo‘ymoqchiligin aytdi.

Maktab direktori Karim Tursunovich 9-sinf bitiruvchilariga shahodatnama topshirish marosimida Sobirjonga: «O‘g‘lim Sobirjon, bizning sendan umidimiz katta. Sen, albatta akademik litseyga o‘qishga kirib, so‘ng oliy dargohlarda tahsilni davom ettirishing kerak. Kelajakda ajoyib shoir bo‘lishingga ishonaman», — deya katta ishonch bilan qo‘liga shahodatnama va tavsiyanomani topshirdi.

Sobirjon qaysi yo‘lni tanlashni bilmaydi. 2 kun ichida bu masala hal qilinishi lozim... Siz unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata olasizmi?

## **1.11-§. «FSMU» texnologiyasi**

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida kursantlarning o‘quv mashg‘ulotlari hamda o‘tilgan mavzu va bo‘limlardagi ba’zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida yoki o‘quv rejasi asosida biron-bir bo‘lim o‘rganilgach qo‘llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya kursantlarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda kursantlar tomonidan o‘quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda bahslashish madaniyatigao‘rgatadi.

**Texnologiyaning maqsadi.** Ushbu texnologiya kursantlarni tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:** Mashg‘ulot o‘tuvchi har bir kursantga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

Bu yerda:

**F** - fikringizni bayon eting;

**S** - fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating;

**M** - ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

**U** - fikringizni umumlashtiring.

mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;

yakka tartibdagi ish tugagach, kursantlar kichik guruhlarga ajratiladi va mashg‘ulot o‘tuvchi kichik guruhlarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi;

kichik guruhlarning har bir a'zosi berilgan tarqatma materiallarda yakka tartibda yozilgan fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;

mashg'ulot o'tuvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi;

mashg'ulot mashg'ulot o'tuvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

**Izoh:** *ilmiy-tadqiqot ishlarining mavzusini tanlash, mualliflarning yozgan maqola, qo'llanma, darslik, uslubiy tavsiyalariga taqriz yozishda ham ushbu texnologiya strukturasidan foydalanish mumkin.*

### **Tarqatma materialning taxminiy nusxasi**

Vazifa. «Pedagogik texnologiya o'zini oqlaydi!» mavzusi bo'yicha fikrlaringizni bayon eting.

Fikr - \_\_\_\_\_

Sabab - \_\_\_\_\_

Misol - \_\_\_\_\_

Umumlashtirish - \_\_\_\_\_

Mavzu: «Psixologiya — jamiyatda doimo ehtiyoj ortib boradigan fan!»

Fikr - \_\_\_\_\_

Sabab - \_\_\_\_\_

Misol - \_\_\_\_\_

Umumlashtirish - \_\_\_\_\_

## 1.12-§. «Muammo va yechim» texnologiyasi

**Texnologiyaning maqsadi:** shaxsiy tarkibga o‘quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to‘g‘ri topishga o‘rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba’zi usullari bilan tanishtirish va muammoning yechišda mos usullarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xattiharakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatish.

### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

Shaxsiy tarkib guruhlarga ajratilib, ularni mos o‘rinlariga joylashtirilganidan so‘ng, mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntiriladi, ya’ni mashg‘ulotning bosqichli bo‘lishi va har bir bosqich ulardan maksimum diqqat-e’tibor talab qilinishi, mashg‘ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo‘lib ishlashlari aytildi. Bunday kayfiyat shaxsiy tarkibga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo‘lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg‘otadi. Mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg‘ulot boshlanadi:

- shaxsiy tarkib tomonidan mashg‘ulot uchun tayyorlangan ta’limiy video lavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarlari belgilab qo‘yish (agar kinofilm ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lmasa, u holda mashg‘ulot o‘tuvchi o‘quv predmetining mavzusi bo‘yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o‘quv materialidan foydalanishi mumkin);
- har bir guruh a’zolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 formatdagi qog‘ozga flomaster bilan yozib chiqadi;
- berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh, vakili tomonidan o‘qib eshittiriladi;

- mashg‘ulot o‘tuvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog‘ozlarni almashtirgan holda guruhlarga tarqatadi;
- tarqatilgan qog‘ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh a’zosi (yoki har bir guruh) o‘zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh, a’zosi (yoki guruh) tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

**Izoh:** *tanlangan muammolar o‘quv materiali asosida quyidagi shaklda qo‘yilishi mumkin (bo‘sh joylar kursantlar tomonidan to‘ldiriladi).*

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechishda Sizning harakatlaringiz	Muammoni yechishda uchraydigan to‘silalar

- yakka tartibdagagi (yoki guruhdagagi ish) faoliyat tugagandan so‘ng har bir ishtirokchi bajargan tahliliy ishini barchaga o‘qib eshittiradi;
- muammolar va ularning yechimi bo‘yicha jamoaviy fikr almashiladi;
- himoyadan so‘ng mashg‘ulot o‘tuvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi. Kichik guruhlarga qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

Bunday texnologiya bilan o‘tkazilgan mashg‘ulot natijasida shaxsiy tarkib qaysidir muammoni yechishdan avval uning sababini aniqlanishi kerakligini, keyin esa ularga zarur bo‘lgan uslub va usullarni tanlashi hamda o‘z harakatlarini aniq belgilab olishlari kerakligini bilib oladilar.

## 1.13-§. «Yelpig‘ich» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab va ko‘ptarmoqli bo‘lib, muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida elementlarda muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interfaol texnologiya shaxsiy tarkibga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.



«Yelpig‘ich» texnologiyasi umumiylar mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qantashchining va umuman guruuhning faol ishlashiga qaratilgan.

«Yelpig‘ich» texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida:

- boshida - o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida - uning asoslarini chuqur faxmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida - olingan bilimlarni tartibga solishda qo‘llanilishi mumkin.

«Yelpig‘ich» texnologiyasida uchraydigan **asosiy tushunchalar**:

**Aspekt** (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

**Afzallik** - biror narsa bilan qiyoslashda ustunlik, imtiyoz.

**Fazilat** - ijobjiy sifat.

**Nuqson** - nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik

**Xulosa** - muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Ta'limdan tashqari «Yelpig'ich» texnologiyasi tarbiyaviy tabiatdagi:

- jamoa, guruhlarda ishslash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosali qarirlarni topa olish mahorati;
- o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashuv;
- faollik;
- muammoga diqqatni jamlay olish mahorati kabi qator sifatlarni shakllantirish imkonini ham beradi.

## **1.14-§. «Chorraha» texnologiyasi**

**Texnologiyaning xarakteristikasi:** ushbu texnologiya «davra suhbati»ning takomillashtirilgan varianti bo‘lib, jarayon davomida uy elementlaridan foydalilanadi, chorrahadagi voqea, hodisalar va ularni yechimiga e’tibor beriladi.

**Texnologiyaning maqsadi:** o‘yin elementlari yordamida kursantlarning ish tajribalaridagi yangiliklar, texnologiya, metodlar bilan tanishish, ularda o‘zlarini nazorat qilish, faoliyat va tajribalariga o‘zgalar fikri, tajribasi asosida baho berish ko‘nikmalarini shakllantirish.

### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

- mashg‘ulot o‘quv xonasidan tashqarida - bino koridori, foyesi, hovli vestibyulda boshlanadi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi, mavzu va talablar bilan tanishtiradi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlarga shu yaqin o‘rtada chorraha borligi va unda hozirgi kun talabi ostida 4 katta bino qurilganligi, bino ichida ga’lim tizimini yanada takomillashtirish uchun juda kerakli bo‘lgan jihozlar borligi, ulardan ko‘pchilik anchadan beri samarali foydalanib kelayotgani haqida ma’lumot beradi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi chorrahada joylashgan binolar bilan tanishtiradi. «Ustalar», «Innovatsiyalar», «Texnologiyalar», «Instrumentlar». Mashg‘ulot o‘tuvchi binolar bilan tanishtirib bo‘lgach, ularni chorrahaga taklif etadi va kimni qaysi bino ko‘proq qiziqtirsa, shu binoga kirishlari, joylashishlari mumkinligini aytadi, lekin barcha binolar va ularning ichidagi jihoz juda qiziqarli, kerakligini hisobga olgan holda binolarga teng bo‘linishlarini iltimos qiladi;
- kursantlar o‘quv xonasiga kirib, chorraha shaklida qo‘yilgan stol, stillarga joylashishadi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi chorrahadagi binolarga joylashgan guruh a’zolariga bino ichidagi jihozlar, ta’lim tizimiga kerakli vositalar, ma’lumotlar bilan tanishib bir-birlari bilan o‘rtoqlashishlarini so‘raydi, ya’ni guruh a’zolari o‘zlarini joylashgan binodan qanday jihozlar olishgan,

ularni hayotlarida, o‘quv jarayonida, ish faoliyatlarida shu vaqtgacha qay darajada ishlatib kelishgan va qanday natijalarga erishishgani haqida bir-birlari bilan o‘zaro suhbatlashib, tajriba almashadilar.

Mashg‘ulot o‘tuvchi imkoniyat va sharoitdan kelib chiqib vaqt belgilaydi;

*Izoh:* masalan, «Ustalar» binosidagilar o‘z tajribalaridan kelib chiqqan holda mashg‘ulot o‘tuvchining pedagogik mahorati, uning elementlari; «Innovatsiyalar» binosidagilar - shu kunda ta’lim, tarbiyada, o‘qituvchi va kursant faoliyatida, o‘quv jarayoniga kirib kelgan yangiliklar (ish tajriribalaridan kelib chiqib), «Texnologiyalar» - binosidagilar ish faoliyatlarida qo‘llayotgan pedagogik texnologiyalar; «Instrumentlar» - binosidagilar esa shu kunlarda ish tajribalarida qanday interfaol metodlar borligi va ularni qo‘llanishi haqida o‘zaro so‘zlashadilar, tajriba almashadilar, eng muqobil (qulay, samarali) fikrni, tajribani tanlaydilar boshqa binodagilar bilan almashishga tayyorlanadilar.

- guruhlar o‘zaro suhbatlarini tugatgach, mashg‘ulot o‘tuvchi ulardan binodan olingan taassurotlar haqida fikr bildirishlarini so‘raydi, ya’ni bino ichida topilgan eng qiziqarli, eng muqobil (qulay, samarali) bo‘lgan jihozlar (tajribalar)ni «Pinbord» texnikasi yordamida alohida kichik qog‘ozlarga yozib, doskaga, flipchartga mahkamlashlarini, so‘ngra ular haqida (mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan belgilangan vaqt ichida) qisqacha ma’lumot berishlarini so‘raydi;

- guruh a’zolari tanlangan eng muqobil (qulay, samarali) tajribadagi fikrni kichik qog‘ozlarga yozib, doska yoki flipchartga mahkamlaydilar, ular bilan tanishtiradilar va qisqacha ma’lumot beradilar;

- binodagilar tanlangan jihozlari bilan tanishtirishlarida, ularga qarata savollar bilan murojaat qilishi mumkin, masalan, «Odatda chorrahada ba’zida turli xil voqealar, ko‘ngilbuzar vaziyatlar uchraydi. To‘g‘rimi? Shunday ekan, sizning tanlagan jihozlaringizni (tajribangizni) ishlatish vaqtida qanday to‘siqlar, ko‘ngilbuzarliklar bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lishi mumkin?»

- barcha fikrlar, tajriba almashish tugagach, mashg‘ulot o‘tuvchi, mashg‘ulot haqidagi fikrlarni aniqlaydi, o‘z fikrlarini bildiradi va mashg‘ulotni quyidagicha yakunlaydi: «Chorraha - uchrashuvlar joyi, turli harakatlar, bekatlar joyi, voqea, hodisa va to‘qnashuvlar joyi, har bir boshlangan ish chorrahaning xohlagan yo‘li orqali amalga oshishi mumkin, bir tomonda amalga oshmagan ish, ikkinchi tomonda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ish, chorrahada tasodiflarning bo‘lmasligi, bu yerda kerakli yo‘lni topa bilish, chorrahaning qoidalariga to‘liq amal qilishni talab etadi, biz ham bugun chorrahada qurilgan binolardagi jihozzlarni to‘g‘ri tanlab olib kerakli yo‘ldan ularni manzilga yetkazish, ya’ni o‘quv jarayonida uslub, shakl, usul, vositalarni to‘g‘ri tanlab o‘z o‘rnida ishlata olish, bu borada ularni ishlatishga qo‘yilgan talablarga to‘liq rioya qilinishi, turli xil ortiqcha to‘sqliarning oldini olish mumkinligini aniqladik. Bugun siz tomondan aytilgan, tanlangan texnologiyalar, innovatsion-interfaol metodlar juda qizqarli, lekin ularning hammasi ham keraklicha, o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlatilmayotganini bilib oldingiz. Sizning faoliyattingizdagi innovatsiyalar, texnologiya va interfaol metodlar amaliyotda qo‘llanishi, chorrahadagi kabi turli tasodiflardan xoli bo‘lishi, ish jarayoningiz samarali, axloq-odob me’yorlari doirasida, tartibli bo‘lishi sizning ish tajribangiz, kerakli usullar, shakl va vositalarni to‘g‘ri tanlashingiz hamda ularni mahorat bilan amalga oshirishingizga bog‘liq ekanligiga yana bir marotaba ishonch hosil qildingiz»;
- mashg‘ulot o‘tuvchi mashg‘ulotni yakunlaydi, guruhlarga minnatdorchilik bildiradi, doskaga mahkamlangan fikrlar, tajibalarni amaliy ish uchun guruhlarga tarqatadi.

## **1.15-§. «Assesment» texnologiyasi**

Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar juda ko‘p, biz shulardan harbiy qism va muassasalarda o‘tkazilgan mashg‘ulotlarida shaxsiy tarkibning egallagan bilim, ko‘nikma, malakalari darajasini aniqlash, baholashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan intensivinterfaol metodlardan biri «Assesment» texnikasi haqida fikr yuritamiz va uning metodikasini keltiramiz.

### **«Assesment» texnologiyasi**

**«Assesment»** ta’lim jarayonida baholash texnologiyasi sifatida qo‘llaniladi. Mazkur texnologiya mohirlik, ustalik degan ma’noni bildiradi. Demak, kursantlar o‘z bilim, ko‘nikma, malakalarini mohirlik bilan sinab, o‘z-o‘zlarini baholashlari, bir sinovdan o‘tishlari mumkin.

Assesment (ingl. - assessment - baho) o‘z-o‘zini taqdimot qilish, ma’lum bir sinovdan o‘tish deb belgilanadi.

**Texnologiyaning mohiyati.** Ushbu usul o‘tilgan mashg‘ulot yoki bo‘lim bo‘yicha barcha mavzularni kursantlar tomonidan yodga olish, yoki biron-bir mavzu bo‘yicha trenero‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq, vazifalarga mustaqil ravishda o‘z munosabatlarini bildirish, shu orqali egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘zlarini tekshirib, baholashlariga imkoniyat yaratish va mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha kursantlarni ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan bilimlari, ko‘nikmalarini baholay olishga yo‘naltirilgan.

**Texnologiyaning maqsadi.** Kursantlarni mashg‘ulotda o‘tilgan mavzuni egllaganligi va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, mustaqil ravishda o‘zlarining bilim darajalarini baholay olish, shuningdek, o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatish.

**Texnologiyaning qo‘llanilishi:** o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron-bir bo‘limi tugallanganida) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin

kursantlarning bilimlari tekshirib olish, ko‘nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu usulni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka tartibda tashkil etish mumkin.

**Mashg‘ulot uchun kerakli vositalar:** tarqatma materiallar (imkon bo‘lsa, bo‘lmasa kursantlar o‘z daftarlariiga jadvalni chizib olishlari, berilgan vazifa va topshiriqlarni mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan eshitib javoblarini jadvalning kataklariiga to‘latishlari shart); jadval uchun topshiriqlar; qalam (yoki ruchka); taqdimot - slaydlar va b.

**Izoh:** *reja bo‘yicha belgilangan mavzu asosida hamda mashg‘ulot o‘tuvchi qo‘ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar tayyorlanadi.*

#### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

- kursantlar ish tartibi, belgilangan maqsad, unga qo‘yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar tarqatiladi yoki mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan aytib turiladi, kursantlar daftarlariiga belgilab olishadi;
- kursantlar yakka tartibda o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha tarqatma materialdagi kataklarda berilgan vazifa, topshiriqlar bilan tanishadilar (vazifa va topshiriqlar ekranda slayd orqali ko‘rsatilishi, kursantlar esa tarqatma materialga yoki daftarlari faqat javoblarini yozishlari mumkin yoki bo‘lmasa tarqatma materialning bir tomonida topshiriqlar berilishi orqa tomoniga esa javoblar yozilishi mumkin, mashg‘ulot o‘tuvchi sharoit va vaziyatdan kelib chiqib o‘zi va kursantlar uchun qulay holatda ish tutadi);
- kursantlar tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan vazifa, topshiriqlarni (ular o‘tilgan mavzu, bo‘lim yoki o‘quv predmeti asosida tuzilishi mumkin) o‘zlarining bilimlari asosida yakka tarti bajaradilar;
- mashg‘ulot o‘tuvchi tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan topshiriqlar vazifalarni, imkon bo‘lsa, ekran orqali yoki o‘zi og‘zaki aytishi orqali to‘g‘ri javoblarni beradi hamda har bir katakda berilgan javoblarni baho mezoni bilan tanishtiradi;

- har bir kursant to‘g‘ri javob bilan o‘zlar belgilagan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, o‘z-o‘zlarini tekshiradilar, baholaydilar shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar;
- mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlar tomonidan bajarilgan ishlarni yig‘ib oladi va ularning to‘plagan ballari yoki baholarini guruh jurnaliga qayd etadi, o‘tkazilgan ishga yakun yasaydi.

**Izoh:** *jadvaldagি kataklar soni nechta bo‘lishi mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan qo‘yilgan maqsad, o‘tilgan mavzu yoki bo‘lim haqidagi ma‘lumotlarga bog‘liq. Jadvalda, albatta, o‘tilgan mavzu, bo‘lim bo‘yicha ma‘lumotlar ham ilmiy-nazariy, ham amaliy ko‘nikmani tekshirish, baholashga yo‘naltirilgan tegishli vazifa yoki topshiriqlar bo‘lishi kerak.*

Quyida o‘quv predmeti asosida beriladigan vazifa va topshiriqlarga qo‘yiladigan talablar bilan tanishtirmoqchimiz (misol tariqasida eng oddiy variant sifatida):

### **O‘quv predmetining bir mavzusi yoki bo‘limi yoki yakuni asosida...**

Test O‘tilgan mavzu bo‘yicha 1-2 ta test beriladi	Muammoli vaziyat O‘tilgan mavzu asosida aniq hayotiy vaziyat, hodisaga asoslangan muammo beriladi, kursant bo‘lajak mutaxassis sifatida uning to‘g‘ri yechimini topishi kerak
Simptom O‘tilgan mavzu bo‘yicha ilmiy-nazariy fikrlar, g‘oyalar, ta’riflar tugallanmagan fikr asosida beriladi, masalan: ...ta’rif bering, ... ilmiy asoslang, ...masala mazmunini yoriting va b.	Amaliy ko‘nikma O‘tilgan mavzu mazmunini hayotda ish faoliyatida qo‘llashdagi ko‘nikmalarga tegishli topshiriq beriladi, masalan: chizing, hisoblang, to‘ldiring, toping, taqqoslang va hakazo

«Assesment» texnikasi usulidan bir darsning o‘zida dars boshlanishida o‘tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi

mavzu bo‘yicha kursantlarning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida esa bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun yoki birinchi darsda o‘quv predmeti bo‘yicha kursantlarkar qanday bilim, ko‘nikmalarga ega ekanliklarini aniqlash yoki oraliq, joriy, yakuniy nazoratda reyting ballarini belshilashda foydalanish mumkin.

Pedagogika fanini o‘qitishdagi o‘quv mashg‘ulotida «Assesment» texnikasidan foydalilaniladigan tarqatma materialning jadval kataklariga vazifa va topshiriqlarni berish mumkin (*misol tariqasida*):

**Mavzu:** Ta’lim jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

<p>Test</p> <p>O‘quv mashg‘uloti bu ...</p> <p>A. Ta’lim, tarbiya, rivojlantirish jarayoni</p> <p>B. O‘quv faoliyatining asosiy shakli</p> <p>C. Natijaga erishish jarayoni</p> <p>D. Turli xil shakldagi dars jarayoni</p>	<p>Muammoli vaziyat</p> <p>Auditoriyada dars vaqtida siz o‘tayotgan mavzuni juda mukammal biladigan kursantlar bor, shu sabab, u dars davomida Sizga va kursantlarga xalaqit bera boshladi: savollari, fikrlarga qo‘shilishi bilan barchani diqqatini bo‘lib chalg‘ita boshladi. Sizning harakatingiz...</p>
<p>Simptom</p> <p>Pedagogik texnologiyaning asosiy belgisi... Interaktiv ta’limning asosiy belgisi...</p>	<p>Amaliy ko‘nikma</p> <p>Harbiy ta’lim muassasasidagi o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llanilayotgan interaktiv metodlar ro‘yxatini tuzing (tajribadan kelib chiqib misol keltiring)</p>

## **II BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK USULLAR TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TURLARI**

### **2.1-§. «SCORE» interfaol usuli**

**«SCORE» haqida umumiy ma'lumot.** «SCORE» interfaol usuli kursantlarda muammolarni aniqlash qobiliyati, kognitiv ko'nikma va malakalarni rivojlanтирish, bor manbalar va imkoniyatlardan foydalanib muammoning yechimini topishni shakllantirishga yo'naltirilgan.

**S (symptom)** muammoning belgisi - muammoning muhokamasi vaqtida turli ziddiyatlarga, tushunmovchiliklarga keltiruvchi yopiq elementlari, yo'nalishlari, (masalan, iqtisodda, siyosatda, ta'limgart tarbiyada, kishilar o'rtaсидagi munosabatda uchraydigan tushunmovchiliklar, ziddiyatlar) hali ochilmagan yopiq qirralarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni aniqlashdir.

**S (cause)** - sababi - muammoning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan yopiq qirralar (masalan, ziddiyat va tushunmovchilikka olib keluvchi eski qarashlar, an'anaviy fikrlar)ni izlash, aniqlash.

**O (outcome)** - natijasi - kutiladigan natijaga ega bo'lishda muammoga olib kelgan yopiq qirralar o'rnni bosuvchi yangi texnologiyalar, harakatlar, maqsad, holatlarni belgilash.

**R (gesourses)** - manbai - muammoning ochilmagan qirralarini o'zgartirishga, uning yangi maqsadlari, texnologiya va harakatlar hamda kutiladigan natijaga erishishga xizmat qiladigan vositalarini yoki mukobil materiallarni hamda «qaerda?», «qachon?», «nima?», «qanday?», «nimaga?», «kim?» savollari asosida muammoni yechishning kerakli, asosiy manbalarini topishdan iborat.

**Ye (effect)** - samarasi - muammoning yechimi asosida aniq bir maqsad bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan mukammal natija orqali yuksak samaraga erishish, aniq maqsadli amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Muammoli holat va vaziyatni aniqlashga doir uchun savollar:

- 1.Muammoning qanday yopiq qirralari bor?
- 2.Muammoда yopiq qirralarning bo'lish sabablari nimada?

3.Qanday manbalar aniqlangan sabablarni yo‘qotishga yordam beradi?

4.Ushbu muammo bo‘yicha maqsad va natija qanday bo‘lishi mumkin?

5.Qaysi manbalar samarali natijaga erishishga imkon beradi?

6.Erishilgan maqsad, natija qanchalik uzoq muddat davomida samara bera oladi?

**«SCORE» usulining maqsadi:** kursantlarning o‘zgalar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontirish, asoslash; murosaga kelish va izlash qobiliyatlarini rivojlanтирish; ularda muammoli vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilish, ularni hal qilish yo‘llarini izlab topish, munozara olib borish mahorati, o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish, ta’sir eta olishga o‘rgatish va bahslashish madaniyatini shakllantirish.

**Usuldan kutiladigan natija:** kursantlar mashg‘ulot davomida nostandard vaziyatlarda o‘zini va jamoani boshqara olish, muammoli vaziyatlarni tushuna bilish va ularning yechimini aniqlashda o‘z usullarini topa bilish, o‘z fikrlarini boshqalarga o‘tkaza olish, ta’sir eta olish usullariga hamda bahslashish madaniyatiga o‘rganadilar.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi.** Mashg‘ulot belgilangan vaqtda kursantlarning xonaga (mashg‘ulot o‘tkaziladigan joyga) kirib kelishidan boshlanadi. Kursantlar xonaga kirib kelishar ekan, mashg‘ulotdan oldin mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan eshikning yonidagi stol ustiga tayyorlab qo‘yilgan ingliz tilida yozilgan harflardan (S C O R E) bittadan olib stol atrofiga joylashadilar (stollarga ham shu harflar qo‘yilgan, har bir stol atrofida kursantlar soni bir xil bo‘lishi hisobga olinadi). Kursantlar joylashib olishgach, mashg‘ulot boshlanadi.

Kursantlarni mashg‘ulot o‘tkazish tartibi bilan tanishtiriladi. Tarbiyachi shu kunning dolzarb muammolaridan kelib chiqqan holda mashg‘ulotga kursantlar bilan birgalikda mavzu yoki muammo tanlaydi va guruhlardan ularning har biri tanlangan mavzu yoki muammoni bir tomonini o‘rganishlarini (stollarga shu guruh tomonidan umumiy muammoning qaysi jihatlari haqida so‘z yuritishlari kerakligini ko‘rsatuvchi belgi yoki yozuvli material qo‘yiladi), so‘ngra munozara

yuritib, o‘zlarining fikrlarini yozma (og‘zaki) bayon qilishlari kerakligini tushuntiradi. Vazifa uchun vaqt belgilaydi. Guruhlarning ishlari tayyor bo‘lgach, ular birin-ketin o‘rtaga chiqib, ishlarini taqdimot qiladilar. Taqdimot avval muammoning - belgisi (S), keyin uning - sababi (S), so‘ngra - natijasi (O), manbai (R) va samarasi (Ye) tartibida olib boriladi.

Boshqa guruh a’zolari taqdimot kilayotgan guruhning fikrlarini to‘ldirishlari mumkin. Barcha guruhlarning taqdimoti nihoyasiga yetgach, bildirilgan fikrlar, taqdimot materiallari umumlashtirilib xulosa qilinadi. Mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlar bilan birligida guruhlar faoliyatiga baho beradi. Mashg‘ulotga yakun yasaydi, kursantlarning mashg‘ulot haqidagi fikrlarini aniqlaydi.

**Izoh:** *ushbu mashg‘ulotni SCORE interfaol usuli yordamida o‘tkazish tavsija etiladi, shuning uchun kursantlar har bir harf bo‘yicha 5 guruhga bo‘lingan holda joylashishadi. Ushbu interfaol usulni o‘tkazish qoidalariga to‘la rioya qilinishi mashg‘ulotning samarali va natijali bo‘lishiga, kursantlarni mustaqil fikr bildirishlari va mashg‘ulot mobaynida, faol bo‘lishlariga imkon beradi. Quyida ushbu interfaol usul haqida tushuncha beriladi.*

**«SCORE» interfaol usulini qo‘llagan holda o‘quv mashg‘ulotini quyidagi tartibda o‘tkazish mumkin:**

mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlarni guruhlarga bo‘lib olgach (guruh a’zolari soni 4 tadan oshmagani ma’qul), guruh a’zolarining har biriga ushbu metod haqidagi yozma ma’lumotlarni tarqatib, yakka tartibda uni sinchiklab o‘rganishlari kerakligini uqtiradi, vaqt belgilaydi.

Belgilangan vaqt tugagach, guruh a’zolari «SCORE» usuli haqida egallagan bilimlari, axborotlarini o‘zaro bir-birlari bilan o‘rtoqlashadilar, ushbu metodning mohiyati, mazmuni, maqsadi haqida (belgilangan vaqt ichida) fikrlashadilar.

Mashg‘ulot o‘tuvchi guruhlar tomonidan ushbu metod haqida umumiyl tushunchaga ega bo‘lishganini bilgach, zamonaning global muammolari to‘g‘risida so‘z yuritadi. Mashg‘ulot o‘tuvchi guruh azolari

bilan birgalikda global muammolar ro‘yxatini tuzadi: narkomaniya, OITS, ekologik inqiroz, alkogolizm va boshqalar.

Mashg‘ulot o‘tuvchi har bir guruhdan shu global muammolar ro‘yxatidan bittadan muammoni tanlab olishlarini so‘raydi, so‘ngra ularga tanlangan muammo ustida fikr yuritishlari va o‘z fikrlarini yozma bayon etishlari uchun oldindan tayyorlangan tarqatma materiallarni beradi (misol tariqsida ilova qilinadi). Guruh, a’zolari birgalikda tanlagan muammolari haqidagi fikrlarini berilgan qog‘ozlarga yozma bayon etadilar, guruhdan bir kishini taqdimot uchun tayyorlaydilar. Guruhlar ishlarini tugatishgach, taqdimot boshlanadi. Mashg‘ulot o‘tuvchi taqdimotlar asosida mashg‘ulot mavzusi va guruhlar ishiga yakun yasaydi, qo‘srimcha fikrlar bildiradi.

Mashg‘ulot so‘ngida zamonaning global muammolari haqidagi film yoki fotosuratlar, musiqaviy klip namoyish etilishi mumkin.

**Izoh:** *mashg‘ulotning boshlanishida global muammolarni «Aqliy hujum» usuli orqali to‘plamasdan, film, musiqaviy klip, fotosuratlarni namoyish etib, shulardan global muammolarni tanlab olishga imkoniyat yaratish mumkin.*

### **Zamonaning global muammolari** (*misol tariqasida*)

**Muammo:** \_\_\_\_\_

**Simptom (S-symptom)** - Bu muammoning simptomi (belgisi) qanday? \_\_\_\_\_

**Sabablari (S-cause)** - Bu muammo simptomining sabablari qanday? \_\_\_\_\_

**Natijasi (O-outcome)** - Bu muammoni hal qilishga nisbatan kutilayotgan natija yoki maqsad qanday? \_\_\_\_\_

**Resursi (R-gesourses)** - Qanday resurs ushbu sababni bartaraf etishga yordam beradi? Qaysi resurs natija beradi? \_\_\_\_\_

**Samarasi (Ye-effect)** - Ushbu maqsadga erishish uzoq kutilgan qanday samaraga olib keladi? \_\_\_\_\_

## **2.2-§. «Interfaol suhbat» usuli**

Interfaol suhbat - og‘zaki bayon qilish interfaol usuli bo‘lib, kursantlar tomonidan bilimlarni asta-sekin o‘zaro fikrlashib o‘zlashtirishlariga olib keluvchi puxta o‘ylangan savollar tizimidir. Takrorlash, mustahkamlash va yangi bilimlarni bayon qilishda qo‘llaniladi. Bu suhbatda mashg‘ulot o‘tuvchining (yoki kursantlarning) bitta savoliga kursantlar aniq to‘g‘ri javob berishlari kerak.

**Interfaol usulning maqsadi:** mashg‘ulot o‘tuvchining mohirlik bilan qo‘ygan savollari yordamida hamda kursantlarning tirishqoqligi va mustaqil fikrlashlari tufayli ularni yangi bilimlarni jadal o‘zlashtirishlariga erishish, kursantlarning bilimlarni tushunganlik va o‘zlashtirganliklarini nazorat qilish, xotira va tafakkurini rivojlantirish, o‘qilayotgan, o‘rganilayotgan matn (yoki tomosha qilinayotgan rasmni, eksperiment va ekskursiya natijalari)ning asl ma’nosи, mazmuni kursantlar hamkorligida tushuntirish va izohlash, hamkorlikda ishslash, o‘zaro hurmat, mas’uliyatni his etishni tarbiyalash.

**Kutiladngan natija:** mashg‘ulot o‘tuvchining bitta savoliga bitta aniq to‘g‘ri javob berish hamda o‘rganilayotgan materialni to‘g‘ri tushunish va baho berish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

- mashg‘ulot o‘tuvchi guruhni mashg‘ulot mavzusi hamda uni o‘tkazish tartibi talablari bilan tanishtiradi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi mavzuni kursantlarga tushuntirish (mustahkamlash yo takrorlash, baholash) uchun mavzu mazmunini bir necha kichik bo‘limlarga bo‘ladi va shu asosda kichik guruhlar tashkil etadi (guruhlar soni mavzuning bo‘lingan bo‘limlariga bog‘liq);
- mashg‘ulot o‘tuvchi guruhlarga (avvaldan tayyorlab qo‘yilgan) kichik mavzu bo‘limlarini tarqatadi (kichik mavzu bo‘limlar yozilgan tarqatma materiallarni guruhlar o‘zlari tanlab olishlari yoki ushbu bo‘limlar ekranda namoyish etilsa, ekrandagi materiallardan birini tanlab olishlari mumkin va h.k.);

- mashg‘ulot o‘tuvchi guruhlar tomonidan tanlab olingan mavzu bo‘limlari ustida bosh qotirishlari, tarqatma materiallar asosida uni guruh bo‘lib o‘ylab ko‘rishlari, agar muammo bo‘lsa, uning yechimini birgalikda topishlari, o‘z fikrlarini tarqatilgan qog‘ozlarga yozma bayon etishlari kerakligini tushuntiradi;
- guruhlar berilgan topshiriqlarni bajarishga kirishadilar, mashg‘ulot o‘tuvchi vaqt belgilaydi;
- guruhlar ishlarini tugatgach, guruh vakillaridan biri tayyorlangan materialni taqdimot qiladi;
- mashg‘ulot o‘tuvchi guruhlar taqdimotidan so‘ng mavzu asosida o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va baholash maqsadida guruhlarning kichik mavzulari mazmunidan kelib chiqib savollar beradi, bu savolga guruh azolari navbati bilan birin-ketin javob beradilar yoki fikr bildiradilar, muhimi guruhda nechta kursant o‘tirgan bo‘lsa, har biri navbatini o‘tkazmay javob berishi yoki fikr bildirishi kerak (javoblar, fikrlar qisqa, bir-birini qaytarmagan holda og‘zaki shaklda aytilishi kerak);

**Izoh:** *mashg‘ulot o‘tuvchi guruh, a’zolari tomonidan aytilgan javoblar, fikrlarga o‘z munosabatini bildirib boradi, kerak joylarda ma’qullab, ba’zilariga qo‘srimchalar qiladi, to‘g‘rilaydi;*

- mashg‘ulot o‘tuvchi yoki uning assistenti guruh a’zolarining javoblari va aytgan fikrlarini hisoblab boradi, umumiysini doskada, flipchart qog‘ozda, ekranda belgilab boradi;
- barcha guruhlar o‘z fikrlarini bildirib bo‘lishgach, mashg‘ulot o‘tuvchi fikrlarni umumlashtiradi va asosiy mavzuga qo‘srimchalar kiritib, to‘ldiradi;

guruhlar tomonidan doskada (flipchart, ekranda) aytilgan fikrlar, javoblar soniga qarab, eng ko‘p fikr bildirgan, ko‘p javob bergen guruhlar aniqlanadi, mashg‘ulot o‘tuvchi o‘zi belgilagan mezonlar asosida ularni baholaydi, masalan guruhda 10 ta fikr bildirilgan bo‘lsa - 5 baho, 8 ta - 4 baho, 6 ta - 3 baho, 5 dan kam bo‘lsa - «qoniqarsiz», deya baholanadi.

**Izoh:** *bu baholar guruhga beriladi, lekin guruhning har bir a'zosi shu bahoga ega bo'ladi.*

- mashg'ulot o'tuvchi kursantlar baholarini e'lon qilgach, o'tilgan mavzuga yakun yasaydi va keyingi mashg'ulotning mavzusi, vaqtin, o'tkaziladigan joyi, o'tish tartibi bilan barchani tanishtiradi.

## 2.3-§. «Blok-so‘rov» usuli

**Usulning mohiyati.** Ushbu usul o‘tilgan bir mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha ma’ruzada egallangan bilimlarni kursantlar tomonidan mustaqil ravishda mustahkamlash, takrorlash va baholashlariga imkoniyat yaratish va barcha kursantlarni ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan bilimlari, ko‘nikmalarini baholay olishga yo‘naltirilgan.

**Usulning maqsadi.** Kursantlarni ma’ruzada o‘tilgan mavzuni egallaganligi va mavzuni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, shu orqali egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘zлari tekshirib, mustaqil ravishda o‘zlarining bilim darajalarini baholay olish, shuningdek, o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatish.

**Usulning qo‘llanishi:** amaliy mashg‘ulotlarning barcha turlarida o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini takrorlash, mustahkamlash baholash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun mo‘ljallangan.

**Mashg‘ulotga kerakli vositalar:** tarqatma materiallar: ma’ruza matni, darslik, mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlar, jadvallar, rasm, plakatlar va b.; kursantlarning ma’ruzadan konspektlari; taqdimot-slaydlar va b.

**Izoh:** *reja bo‘yicha belgilangan mavzu asosida hamda mashg‘ulot o‘tuvchining qo‘ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, bholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar tayyorlanadi.*

### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

- mashg‘ulot o‘tuvchi shaxsiy tarkibni mashg‘ulot mavzusi, maqsadi hamda uni o‘tkazish tartibi va talablar bilan tanishtiradi;  
\* mashg‘ulot o‘tuvchi o‘quv guruhini 4 ta kichik guruhlarga bo‘ladi va berilgan topshiriqqa har bir guruh a’zosining faol ishtiroki talab etilishini tushuntiradi;

4 ta guruhning har biriga alohida quyidagi topshiriqlar beriladi va ularni bajarishga kerakli bo‘lgan tavsiyalarni tushuntiriladi (topshiriqlarni guruhlar ixtiyoriy ravishda o‘zлari tanlab olishlari yoki o‘qituvchining o‘zi ularni topshirishi mumkin):

1-guruh «**Axborotchilar**» - ma’ruza mazmunidan kelib chiqib nazariy bilimlar haqida ma’lumot berishi.

2-guruh «**Ijodkorlar**» - ma’ruza mazmuni asosida amaliyotdan hayotiy misollar keltirishi.

3-guruh «**Korreksiyachilar**» - o‘qituvchi vazifasini bajarishi, aniqlashtirishi, ma’lumotni to‘ldirishi va aytilgan fikrlarga yakun yasashi.

4-guruh «**Ekspertlar**» - jadval asosida barcha guruhlarning javoblarini, faoliyatlarini baholashi lozim bo‘ladi.

• Mashg‘ulot o‘tuvchi kichik guruhlarga berilgan vazifani bajarish bo‘yicha kelishib olishlari, tayyorgarlik ko‘rishlari uchun vaqt beradi va guruhlar tayyorgarligi tugagach, u 1-guruhga so‘z beradi;

- 1-guruh, a’zolari o‘tilgan ma’ruza mazmunidan kelib chiqib egallangan nazariy bilimlar haqida, iloji boricha, to‘liqroq axborot beradilar (axborotni berilishida har bir guruh a’zosi ishtirok etishi kerak);

- 2-guruh, a’zolari 1-guruh a’zolari tomonidan berilgan nazariy bilimlar haqidagi axborotni diqqat bilan tinglab, uni amaliyot bilan bog‘lab misollar keltiradilar, ya’ni hayotda ushbu axborotda aytilgan fikrlar qaerlarda, qanday ishlatilishi mumkinligini aniq hayotiy misollar orqali tushuntiradilar;

- 3-guruh a’zolari mashg‘ulot o‘tuvchi rolida bo‘lib har ikkala guruh a’zolari bergan ma’lumotlarga anqlik kiritadilar, to‘ldiradilar, noto‘g‘ri joylarini tuzatadilar, guruhlar ishini yakunlaydilar;

- 4-guruh a’zolari esa alohida tuzilgan baholash varaqasida barcha guruhlar faoliyati va ma’ruza mazmuni bo‘yicha bergan ma’lumotlari keltirilgan amaliy hayotiy misollari, to‘ldirishlari, o‘zgartirishlariga belgilangan baholash me’yori asosida guruhlarni (yoki guruh a’zolarini baholaydilar).

**Izoh:** *ushbu interfaol usul bir mavzuni to‘liq takrorlash, mustahkamlash, baholash uchun ishlatilishi mumkin, yoki munozara mashg‘ulotiga berilgan har bir savolni alohida-alohida ko‘rib chiqish mumkin. Agar shunday bo‘lsa, u holda bir savolni yuqoridagi tartibda*

*muhokama qilib, baholab bo‘lingach, guruhlarning vazifalari (rollar almashtiriladi, so‘ngra munozara mashg‘ulotining ikkinchi savoli muhokama qilinadi, baholanadi. Munozara savollari soni va mashg‘ulotga ajratilgan vaqtga qarab, mashg‘ulot o‘tuvchi guruhlarning vazifalarini (rollarini) almashtirib boradi. Mashg‘ulot o‘tuvchining ushbu interfaol usulni qo‘llashdagi asosiy harakati mashg‘ulotda har bir kursantning ishtirokini ta‘minlash.*

•guruхlar tomonidan barcha vazifalar to‘liq bajarilgach, mashg‘ulot o‘tuvchi o‘z fikrini bildiradi, guruхlar faoliyatiga, ishlariga baho beradi, mashg‘ulotga yakun yasaydi, ekspertlar guruhi tomonidan qo‘yilgan baholar (ballar)ni qayd qilish jurnaliga ko‘chirib qo‘yadi.

## 2.4-§. «Tushunchalar tahlili» usuli

**Usulning mohiyati.** Ushbu usul o‘tilgan (chorak, semestr yoki o‘quv yilida tugagan) o‘quv predmeti yoki bo‘limning barcha mavzularini takrorlash, mustahkamlash, kursantlar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va mashg‘ulot o‘tuvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha kursantlarni baholay olishga, og‘zaki va yozma nutqlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan.

**Usulning maqsadi.** Kursantlarni mashg‘ulotda o‘tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatish.

**Usulning qo‘llanishi:** o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron-bir bo‘limi tugallanganda) o‘tilgan mavzuning o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin kursantlarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu usulni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

**Mashg‘ulotda foydalilaniladigan vositalar:** tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro‘yxati, qalam (yoki ruchka), slayd.

**Izoh:** *reja bo‘yicha belgilangan mavzu asosida hamda mashg‘ulot o‘tuvchining qo‘ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o‘tkazish mo‘ljallangan bo‘lsa, guruh kursantlari soniga, agar kichik guruhlarda o‘tkazish belgilangan bo‘lsa, u holda guruhlar soniga qarab, tarqatma materiallar tayyorlanadi).*

### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

- kursantlar guruhlarga (sharoitga qarab) ajratiladi;
- kursantlar mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
  - tarqatma materiallar har bir kursantga yoki guruh a’zolariga tarqatiladi;
  - kursantlar yakka tartibda o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
  - kursantlar tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o‘zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo‘lsalar shunday) izoh yozadilar (avval yakka tartibda);
  - mashg‘ulot o‘tuvchi tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalarni o‘qiydi va jamoa bilan birlashtirishda har bir tushunchaga to‘g‘ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkon bo‘lsa) tanishtiriladi;
  - har bir kursant to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblarni farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo‘ladilar, o‘z-o‘zlarin tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarni yana bir bor mustahkamlaydilar.

**Izoh:** «*Tushunchalar tahlili*» usulini «*Chaynvord*», «*Uzluks zanjir*», «*Klaster*», «*Blis-zanjir*» shaklida ham tashkil etish mumkin.

«*Tushunchalar tahlili*» usulidan bir darsning o‘zida dars boshlanishida o‘tilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo‘yicha kursantlarning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.

Quyida «*Harbiy pedagogika*» fani mashg‘ulotida foydalaniladigan tarqatma material namunasi keltiriladi.

**Mavzu: Harbiy ta’lim va tarbiyada innovatsiya (misol tariqasida)**

Tushunchalar	Mazmuni
Harbiy pedagogika	
Pedagogik innovatsiya	
Interaktiv dars	
Pedagogik texnologiya	
Pedagogik kvalimetiriya	
Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik	
...	

**Izoh:** *tarqatma materialdagi yozma tushunchalarni o‘quv predmetining xususiyatlariga qarab rasmlar, ramziy belgilar, formula, chizmalar bilan ifoda etish mumkin yoki tarqatma materialning o‘ng tomoni tushunchalarning izohi berilib, chap tomoniga izoh asosida kerakli tushunchalarni yozish yoki chizish mumkin.*

### **III BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TRENING VA DIDAKTIK O'YINLAR TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TURLARI**

#### **3.1-§. «Kontakt» - jamoaviy hikoya tuzish» treningi**

##### **Trening maqsadi:**

- o'quv jamoasi ishtirokchilarini birbiri bilan tanishtirish;
- do'stona munosabat va ijodiy muhit yuzaga keltirish;
- kursantlar o'rtasidagi psixologik to'siqlarni yengishga o'rgatish.

**Treningdan kutiladigan natija:** Mazkur trening mashg'ulot o'tuvchi va kursantlar jamoasini, uning harakteri, ijodiy imkoniyatlari, qobiliyatları, ishga munosabatlari, shuningdek, pedagogik jarayonda kim bilan qanday ishlashni, nimaga e'tibor berishni, kimga nimada yordam berishni, kimni quvvatlashni va sh.k.larni bilishga imkon yaratadi.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Mashg'ulot boshlanishidan oldin mashg'ulot o'tuvchi iltimosiga ko'ra kursantlar xonaning kiraverish joyida maxsus stolga tayyorlab qo'yilgan raqamlar yozilgan qog'ozlardan bittadan tanlab oladilar (raqamli qog'ozlar kursantlar soni bo'yicha tayyorlanadi) va doira shaklida qo'yilgan stillarga borib joylashadilar.

Kursantlar o'z joylarini egallagach, mashg'ulot o'tuvchi ular bilan tuziladigan hikoyaning mavzusini kelishib oladi yoki mashg'ulot o'tuvchining o'zi biron bir mavzu taklif etadi (hikoya mavzusi kursantlarning yoshi, qiziqishlarini hisobga olgan holda sarguzashtli, hayotiy yoki yoshlar hayoti, odob-axloqi haqida bo'lishi mumkin).

Mashg'ulot, kursantlardan birining biron bir mavzu yoki tanlangan mavzu asosidagi hikoyasidan boshlanishi mumkin (uncha faol bo'limgan guruhlarda mavzu bo'yicha hikoyani mashg'ulot o'tuvchining o'zi boshlab berishi mumkin). Hikoyani boshlagan kursant eng qiziqarli syujetda so'zlashdan to'xtab, «Hikoyaning davomi raqamli kursantda» deydi. Raqami ko'rsatilgan kursant hikoyani (voqeani) to'xtagan joyidan (mavzudan chiqmagan holda) boshlab davom ettiradi.

Bu kursant ham avvalgi kursant kabi hikoyaning eng qiziqarli joyida to‘xtab «Hikoyaning davomi raqamli kursantda» deydi. Mos raqam ko‘rsatilgan kursant hikoyani (voqeani) kelgan joyidan boshlab davom ettiradi. Hikoyani so‘zlash, davom ettirish davradagi kursantlarning har biri ishtirok etmaguncha shu tariqa davom etadi.

Mashg‘ulot o‘tuvchi kursantlarning so‘zlayotgan hikoyalari bir-biriga mantiqan bog‘liq va mazmunga ega bo‘lishini kuzatib boradi hamda mavzudan mazmunda chetlanish bo‘lsa bu holatni to‘g‘rilab boradi.

Hikoya tuzilgach, tarbiyachi barchaga minnatdorchilik bildiradi va kerakli tavsiyalarni beradi.

**Izoh:** *kursantlar jamoasini yaxlit bir jamoa shaklida shakllanishi hamda kursantlar o‘rtasidagi munosabatni samimiyl bo‘lishiga yordam beruvchi bu kabi treninglar juda ko‘p, ularni o‘tkazish tartiblari ham turli-tuman. Masalan: jamoa bo‘lib ertak to‘qish (doira shaklida davradagi kursantlardan biri ertakni boshlab beradi, yonida o‘tirgan uni davom ettiradi, asosiy sharti, har bir kursant ertakni davom ettirishda mantiqan bog‘langan faqat bir jumla ishlatadi, shu tariqa kursantlar ketma-ket bittadan jumla aytgan holda ertak to‘qiydilar, ertak mazmunan tugallanmaguncha mashg‘ulot davom etadi, o‘rtadagi o‘zilishlarni mashg‘ulot o‘tuvchi kuzatib, tuzatib boradi. Masalan, bir kursant: «Bir bor ekan, bir yuq ekan», ikkinchi kursant: «Bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan», uchinchi kursant: «Qadim o‘tgan zamonda bir chol va kampir bo‘lgan ekan», to‘rtinchi kursant....).*

Yuqoridagi kabi «**Sarguzashtli hikoya tuzish**» (sarguzashtlar dengiz, quruqlik, tog‘lar, o‘rmondagи voqealar haqida), «**Dunyo bo‘ylab sayohat**» (bir mamlakatdan ikkinchisiga borishdagi voqealar haqida), «**Jonajon o‘lkam bo‘ylab sayohat**» (viloyatlar, qir-adirlar, bog‘u rog‘lardagi voqealar haqida), «**Ona shahrim - ko‘rkam Toshkentim**» (shahar ko‘chalari haqida) va boshqa mavzular bo‘yicha hikoyalar tuzishni tashkil etish mumkin.

### **3.2-§. «Pedagogiada» treningi**

**Trening maqsadi:** kursantlarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash usuli yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosining yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoning yechishga, mavzuga umumiyl tushuncha berishga, shuningdek, o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

**Treningdan kutiladigan natija:** kursantlar bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot oladilar, taqqoslash orqali muammolarni yechimini topishga, ayni paytda berilgan mavzuning har birini aloxdda nuqtalarda muhokama qilishda, ya’ni uning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlarini aniqlashda o‘z fikrlari orqali boshqalarga ta’sir etishga urganadilar.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi.** Mashg‘ulot kursantlarni 5 ta stol atrofiga bir xil sonda joylashtirishdan boshlanadi. Mashg‘ulot o‘tuvchi mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan kursantlarni tanishtiradi va mashg‘ulot mavzusidan kelib chiqqan holda asrlar davomida insoniyat ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanganligi, har bir davrdagi tarbiya o‘zining usullari, tamoyillari, mazmuniga ega bo‘lganligi, lekin har bir davr tarbiyasining o‘ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari bo‘lganligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. So‘ngra u avvaldan tayyorlab qo‘yilgan tarqatma materiallarning guruhlarga tarqatadi, ish tartibini tushuntiradi, vaqt belgilaydi va kerakli ko‘rsatmalarni beradi.

Tarqatma materiallarning har biriga quyidagi mavzulardan bittasi yoziladi:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi tarbiya;
2. Feodallik tuzumi davridagi tarbiya;
3. Kapitalistik tuzumi davridagi tarbiya;
4. Sovetlar tuzumi davridagi tarbiya;
5. Mustaqillik davridagi tarbiya.

Mashg‘ulot o‘tuvchi har bir guruh a’zolaridan tarqatma materiallarga yozilgan mavzularni birgalikda fikrlashib, shu haqida bilganlarini yodga olib berilgan mavzuni o‘scha davrga nisbatan ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashlarini va guruh fikrini tarqatma materialga yozishlarini so‘raydi. Bu ish uchun guruhlarning umumiylashtirishini hisobga olgan holda vaqt ajratiladi. Guruhlar berilgan vazifani bajarishgach, navbatma-navbat uni taqdimot qilishni boshlaydilar.

Taqdimot vaqtida guruh vakili o‘z mavzulari bo‘yicha yozilgan ma’lumotni iloji boricha izoh bermagan holda barchaga o‘qib eshittiradi. Qolgan guruh a’zolari berilayotgan ma’lumotni diqqat bilan tinglab, uni to‘ldirishlari yoki savol bilan murojaat qilishlari mumkin. Barcha guruhlar taqdimoti tugagach, mashg‘ulot o‘tuvchi berilgan ma’lumotlar asosida ularni umumlashtiradi, qo‘sishchalar qilgan holda mavzuga yakun yasaydi va kursantlarni ushbu mashg‘ulotdan nimalarni o‘rganganliklari, nimalarni bilib olganliklari va yana nimalar ularni qiziqtirishini aniqlaydi.

### Tarqatma materialning taxminiy namunasi

<b>PEDAGOGIADA</b>	
Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi tarbiya	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari

### **3.3-§. «Panorama» treningi**

**Trening maqsadi:** mashg‘ulot kursantlarni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa bo‘lib) fikr yuritib hal etish, yechimini topish, ko‘p fikrlardan zarurini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo‘yilgan muammo yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishaga, shuningdek, o‘z fikrlarini ma’qullay olishga o‘rgatish.

**Treningdan kutiladigan natija:** kursantlar erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga; jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga; fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o‘z fikrini o‘tkazishga, uni ma’qullahsga; qo‘yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiylashtirishda berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rganadilar.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi.** Tarbiyachi mashg‘ulotni yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tahdidlar, xatarlar: xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya, OITS, egotsentrizm axloqsizlik falsafasi, «Dunyo fuqarolari» - kosmopolitizm va ularga nimalarni qarshi qo‘yish: farzandlarni asrash, hushyorlik, yoshlarni g‘oyaviy qurollantirish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, tahdidlarlar mohiyatini oddiy so‘zlar, hayotiy misollar bilan tushuntirish, millat kelajagi uchun mas’uliyatni shakllantirish, iroda, e’tiqodni mustahkamlash, ongli yashashga o‘rgatish, axborot tajovuz mohiyatini ochib berish, nikohni mustahkamlash kerakligi haqida ma’lumot berishdan boshlaydi. Mashg‘ulot o‘tuvchi mashg‘ulotning asosiy mavzusi bo‘yicha yo‘naltiruvchi so‘zida, hozirgi kunda yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga katta e’tibor qaratilayotgani, chunki mafkuraviy immunitet - begona, zararli g‘oyalari, mafkuralar bilan to‘qnash kelganda unga nisbatan o‘z munosabatini bildira olish, unga qarshi kurashishga g‘oyaviy, ma’nana tayyor bo‘lish imkoniyati ekanligi, har bir odam, avvalo, har bir yosh o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lmasligi bunday immunitetni shakllantirib bo‘lmasligi haqida fikr bildiradi va shu sababdan bugungi tarbiyaviy mashg‘ulotning

mazmunini «Zamonanining global muammolari» mavzusi orqali yoritish zarurligini tushuntiradi.

Mashg‘ulot o‘tuvchi kirish so‘zidan so‘ng kursantlarning umumiyligi soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (kichik guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo‘lgani maqsadga muvofiq). So‘ngra u kursantlarga mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibini tushuntiradi. Har bir kichik guruhga avvaldan tayyorlangan tarqatma materiallarni tarqatadi. Mashg‘ulot o‘tuvchi kichik guruh a’zolarini tarqatma materialda berilgan jadvalda yozilgan asosiy fikr «Zamonanining global muammolari» mavzusiga kiritilgan global muammolar bilan tanishib chiqish va ulardan bittasini tanlashni talab etadi.

Tanlagan muammolari bo‘yicha ajratilgan bo‘limga o‘z fikrmulohazalarini birgalikda yozma bayon etishlarini so‘raydi, uni bajarishga mo‘ljallangan vaqtini belgilaydi. Guruhlar vazifani bajarishga kirishadilar. Vazifa bajarilgach, mashg‘ulot o‘tuvchi guruhlardagi tarqatma materiallarni guruhlararo almashtiradi.

Masalan, guruhlar soni 4 ta bo‘lsa, u holda 1-guruh materialini 2-guruhga, 2-guruh materialini 3-guruhga, 3-guruh materialini 4-guruhga, 4-guruhnikini esa, I-guruhga beradi va qaytadan vaqt belgilaydi. Guruh a’zolari stollariga kelib tushgan varaqdagi global muammolardan yozilmay qolganidan birini tanlab, unga o‘z fikrlarini yozadilar.

Vazifa bajarilgach, mashg‘ulot o‘tuvchi tarqatma materiallarni yana guruhlararo almashtiradi, shu tariqa tarqatma materiallar birinchi bo‘lib yozishni boshlagan guruhga kelib tushmaguncha tarbiyachi ularni guruhlar o‘rtasida almashtirib turadi, guruhlar esa har gal tarqatma materialdagi tanlanmay qolgan yoki to‘latilmay qolgan bo‘limlarni to‘latib, o‘z fikrlarini yozib boradilar.

Tarqatma materiallar o‘z guruhlariga qaytgach guruh a’zolari tarqatma materialda to‘plangan barcha fikrlarni diqqat bilan o‘qib, ularni umumlashtirgan holda qat’iy bir fikrga keladi va guruh vakillaridan birini ushbu fikrni taqdimot qilish uchun tayyorlaydilar. Mashg‘ulot o‘tuvchi guruhlardan taqdimot vaqtida, ayniqsa, uning yechimi va unga qarshi qo‘yish mumkin bo‘lgan fikrlar, tadbirlar, ishlar, usullarga

e'tiborlarini ko'proq qaratishlarini so'raydi. Taqdimot uchun vaqt belgilanadi. Taqdimot vaqtida boshqa guruh a'zolari bildirilgan fikrlarga qo'shimcha qilishlari, to'ldirishlari mumkin. Mashg'ulot o'tuvchi taqdimotni samarali va tartibli bo'lishini ta'minlaydi.

Taqdimot tugagach, mashg'ulot o'tuvchi «Zamonaning global muammolari» mavzusi bo'yicha fikrlarni umumlashtiradi, ularning isboti sifatida vidematerial (imkoniyati bo'lsa) yoki fotosuratlar ko'rsatishi mumkin. Mashg'ulot o'tuvchi mashg'ulotni kursantlarning, guruhlarning ishlariga baho berish, mashg'ulot haqida kursantlar bildirgan fikrlarini aniqlash, bo'sh vaqtlarida mustaqil o'qishlari uchun badiyommabop adabiyotlar, tomosha qilishlari uchun esa filmlarni ro'yxatini aytish yoki tarqatish bilan yakunlaydi.

**Izoh:** *kichik guruhlar soni 4 ta bo'lgani maqsadga muvofiq. Bunday holda tarqatma materiallar 3 marta almashtiriladi va bu bilan o'quv jarayoni zerikarli o'tishining oldi olinadi. Agar kichik guruhlar soni 4 tadan ko'p bo'lsa, u holda ularni ikki potokka bo'lib, tarqatma materiallar almashinuvi har bir potok o'rtaida alohida, taqdimotni esa birgalikda o'tkazish mumkin.*

### **«Zamonaning global muammolari» mavzusidagi «Panorama» treningi uchun mo'ljallangan tarqatma materialning taxminiy nusxasi**

Muammolar	Yuzaga kelish sabablari	Salbiy oqibatlari	Hal etish yo'llari	Nimalarni qarshi qo'yish kerak	Shaxsan men (biz) nima qilishimiz mumkin
Narkomaniya					
Terrorizm					
Ekologik inqiroz					
Diniy ekstremizm					
Missionerlik					
«Ommaviy madaniyat»					

**Izoh:** *tarqatma materialda berilgan global muammolar tarkibini (sonini) har bir mashg'ulot o'tuvchi, uning shu kundagi dolzarblik darajasi, kursantlar guruhining imkoniyati, saviyasi va mashg'ulot uchun ajratilgan vaqtga qarab tanlashi mumkin.*

### **3.4-§. «Sahna» treningi**

#### **Trening maqsadi:**

- kursantlarning ijodiy imkoniyatlarini ochish;
- kursantlarda tashkilotchilik va aktyorlik qobiliyati hamda mahorati malakalarini rivojlantirish;
- sahna madaniyati, aktyorlik mahorati va notiqlik san'atining asosiy elementlarini ko'rsatish.

#### **Treningdan kutiladigan natija:**

Bu mashg'ulot kursantlarga sahna mahorati elementlari, talablari haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar kursantlarga harbiy qism va muassasalarda jamoaviy ijodiy ishlar, guruhda turli tadbirlarni tayyorlash mobaynida yordam beradi. Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari, shaxsiy tarkib, tashkilotchilarga esa o'quv yili davomida tadbirlar va tarbiyaviy ishlarini qanday yo'lga qo'yish, shu bilan birga nimalarga e'tibor berish kerakligini bilish imkonini beradi.

**Treningni o'tkazish tartibi.** Mashg'ulot o'tuvchi kursantlarni mashg'ulotni o'tkazish qoidalari bilan tanishtiradi va 5 kishilik kichik guruhlarga bo'linishni taklif qiladi. Har bir guruh ichida qatnashchilarning roli quyidagicha taqsimlanadi: sahnalashtiruvchi rejissyor, boshlovchi, xoreograf, ssenarist, ijro etuvchi (qo'shiqchi, raqqos, humorist).

Shundan so'ng guruh a'zolari topshiriqlar yozilgan quyidagi mazmundagi kartochkalarni oladilar (yoki tanlaydilar):

- biron-bir tadbirning ssenariysini tuzing;
- tuzilgan ssenariy bo'yicha 30 daqiqalik adabiy-musiqaviy kompozitsiya tayyorlang va uni sahnalashtiring, unda boshlovchining chiqishi, raqs va qo'shiq ijrosi, humor, monolog, kompozitsyaning ommaviy tugallanishini ko'rish mumkin bo'lsin (kompozitsiya qatnashchilari kichik guruhlarning barcha a'zolari bo'lishi mumkin);
- adabiy-musiqaviy kompozitsiyaga mos kerakli jihoz, musiqa, kiyimlar, dekoratsiyalarni tanlang, shuningdek, joyni hozirlang (bu

topshiriq qo‘l ostidagi mavjud narsalar va shu yerdagi bor imkoniyatdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi).

Kichik guruqlar tomonidan topshiriqlarni bajarib taqdimot qilishlari uchun 30-40 daqiqa ajratiladi. Tayyorgarlik tugagandan so‘ng mashg‘ulotning keyingi bosqichi - taqdimot boshlanadi.

Taqdimot davomida guruqlar o‘z ijodiy ishlari va mahoratlarini namoyish etadilar.

1. Yakuniy bosqichda tarbiyachi kursantlar bilan quyidagi savollar orqali bajarilgan ishlar bo‘yicha fikrlarini aniqlaydi:

2. Ushbu treningdan qanday qiziq narsalarni o‘rgandingiz?
3. Nima yoqdi? Nega? Siz uchun nima yangilik bo‘ldi?
4. Qaysi ssenariy va sahnalashtirish Sizga ko‘proq yokdi? Nega?
5. Kompozitsianing sahnalashtirilishi bo‘yicha Sizning fikringiz, hamma narsa hisobga olinganmi?
6. Boshlovchilar, raqqoslar, qo‘sishchilar, monologchilar, bezakchilar va boshqalarning chiqishi haqida Sizning fikringiz;
7. Nimalar ustida yana ishslash kerak va yana nimalarni bilish kerak deb o‘ylaysiz?
8. Siz mashg‘ulot mobaynida ko‘rgan narsalaringizga qanday o‘zgartirishlar kiritgan bo‘lardingiz?

Muhokama jarayonida, shuningdek, uning yakunida mashg‘ulot o‘tuvchi rejissura, kompozitsiya, raqs, sahna madaniyati, sahnalashtirish haqida ba’zi maslahatlarni beradi.

### **3.5-§. «Konsensus va konfrontatsiya» rolli-ishchan o‘yini**

**Texnologiyaning maqsadi:** shaxsiy tarkibda mantiqiy va tanqidiy fikrlash hamda murosaga kelish mahoratini shakllantirish va insonlar huquqlari muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarini aniqlash.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish ketma-ketligi:**

**1.O‘yinni boshlash.** Mazkur bosqichning vazifasi: u yoki bu fikrni to‘g‘ri ekanligini isbotlash orqali opponentlarni o‘z tomoniga og‘dirish.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:** Kursantlarga birin-ketin tasdiqllovchi fikr yozilgan tarqatma materiallar ko‘rsatiladi. Ularga tarqatma materiallarda berilgan fikrlarni qabul qilish yoki qilmaslik taklif qilinadi. Tarqatma materiallardagi fikrlarni qabul qilgan kursantlar bir tomondan qolganlari ikkinchi tomonidan joy egallaydilar. Shunday qilib guruh, 2 ta kichik guruhlarga ajraladi. Ulardan biri tasdiqlangan fikrni qabul qiladi va uning to‘g‘riligini isbotlaydi, boshqa guruh esa opponent bo‘ladi. Guruhlarning vazifalari - o‘z guruhlariga boshqa guruh, a’zolaridan ko‘p kishini jalb etish, ya’ni ularning fikrlarini o‘zgartirishga olib kelishdan iboratdir. Har bir tasdiqlangan fikr ustida 5 daqiqa ishlanadi.

Tarqatma materialda tasdiqlangan fikrlar quyidagicha bo‘lishi mumkin (misol tariqasida):

- insonlar huquqlari hech qachon yetarlicha himoya qilinmaydi;
- o‘zining huquqlarini bilish va uni himoya qilish sharaflı ishdır;
- «Insonlar shaxsiy hayot kechirish huquqiga egadirlar». Bu haqiqatni kattalar hech qachon qabul qilolmaydilar;
- o‘z huquqlarini himoya qila turib ba’zida o‘zaro ziddiyatlarga ham duchor bo‘lishga to‘g‘ri keladi;
- o‘z huquqlarimni himoya qila olaman, turli usullarni ma’qul olaman;
- har bir inson uchun o‘z huquqlarini bilish o‘ta muhimdir;
- mas’uliyat hakida esa insonga kattalar eslatib turishadi;

- hamma vaqt mening huquqlarim boshqalar huquqlarini chegaralab turadi;
- huquq doimo javobgarlikni sezishni taqozo etadi;
- insonlar huquqlarini faqat kattalar himoya qila oladilar;
- har bir inson o‘z qarashlarini o‘zgartirish huquqiga ega;
- kattalar huquqlari insonlarning huquqlarini chegaralaydi;
- kuchli odam hamisha haqdir;
- erkaklar va ayollar hech qachon teng bo‘lmaydilar.

## **2. Tahlil:**

**Mazkur bosqichning vazifasi:** o‘yinni o‘tkazish vaqtida o‘z holatini tahlil qila olish va quyidagi savollarga javob berishi lozim:

1. O‘yin shartlarini bajarish qiyin bo‘ldimi?
2. Mazkur ishni bajarish vaqtida nimalarni his etdingiz?
3. Bahs - munozara natijasidan qoniqdingizmi?
4. Natijaga erishishingizda Sizga nima yordam berdi va nima halaqit berdi?

Bu faoliyat hamkorlikda ko‘tarinki ruhda o‘tishi, yaxshi natija bilan tugashi va suhbatdosh charchamasligi kerak.

Bahs-munozaralarning natijasini, albatta, tahlil qilish va baholash kerak. Uning muvaffaqiyati: ***birinchidan***, guruqlar va ularning ishtirokchi (hamkor)larini birbirlariga o‘zlarining vaziyatlari va holatlarini tushuntirib, yangi axborotlar olishlariga, ***ikkinchidan***, o‘zaro munosabat vaqtidagi ziddiyat (yoki salbiy holat)ning bir qismi yo‘q qilinishiga erishishlariga, ***uchinchidan***, qo‘yilgan muammoni yechib, o‘zaro birbirlarini tushunishlariga bog‘liq.

## **2. Murosaga kelishishning kichik guruhda (juftlikda) tashkil etilishi.**

**Mazkur bosqichning vazifasi:** ikki opponent o‘rtasidagi u yoki bu fikrni tasdiqlanish roziligidagi erishish.

### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

Kursantlarga biron-bir tasdiqlangan fikrni tanlash taklif etiladi. Bu birgalikdagi ish quyidagi ko‘rinishda: bir kishi tasdiqlovchi, ikkinchi kishi esa inkor etuvchi bo‘ladi. Bu faoliyat yakunida ma’lum bir

juftliklar aniqlanadi (yoki agar kichik guruhda uch kishi bo'lsa, uchta qatnashchi). 10 daqiqa mobaynida konstruktiv bahsmunozara ko'nikmasi yordamida murosa (konsensus)ga erishish kerak.

Muhokama qilish uchun taxminiy savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Sizga o'yin shartlarini bajarish qiyin bo'lmadimi?
2. O'yin davomida Siz nimalarni his etdingiz?
3. Bahs-munozara natijasidan qoniqdingizmi?
4. Natijaga erishishda Sizga nima yordam berdi va nima halaqit berdi? Mashg'ulot oxirida mashg'ulot o'tuvchi va kursantlarning faoliyatlariga baho beradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

### **3.6-§. «Bo‘lajak vatan posbonlari» o‘yin musobaqasi dasturi**



Bu o‘yinni harbiy qism va muassasada tashkil etilgan targ‘ibot-tashviqot guruhi tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari, litsey, kollejlarda xonada, zalda yoki ochiq havoda o‘tkazish mumkin.

**O‘yin boshlanishida sahna (yoki davra)ga o‘yin boshqaruvchisi chiqib keladi.** Boshqaruvchi o‘yin-musobaqada ishtirok etishni xohlagan o‘quvchilarni sahna (davra)ga taklif etadi. Musobaqada ishtirok etishni xohlovchilarni tanlash uchun musiqachilar harbiy qo‘sliqlar yoki ularning kuylarini eshittirishlari so‘raladi.

Turli kinofilmlar, konsertlar, kliplardan harbiy qo‘sliqlar, kuylar yangraydi. O‘quvchilar kuy va qo‘sliqlarning mazmuniga qarab sahna (davra)ga chiqadilar. Masalan, «Tankchilar» qo‘srig‘i ijro etilganda, o‘yin-musobaqada «tankchi», «Chavandozlar» qo‘srig‘ida «chavandoz», «Uchuvchilar» qo‘srig‘ida «uchuvchi» bo‘lib ishtirok etmoqchi bo‘lgan o‘quvchilar va hokazo (yoki faqat o‘yinda ishtirok etishga xohish bildirgan o‘quvchilar) sahnaga chiqishlari mumkin. Ishtirokchilar sahna (davra)ga to‘planishgach (20 tacha), ular ikki guruhga ajratiladi. Guruhlardagi ishtirokchilar soni bir xil bo‘lib, harbiylar har ikkala guruhda bir xil sonda, masalan, har ikki guruhda bittadan uchuvchi, bittadan oddiy askar, tankchi, oshpaz va boshqalar bo‘lishi kerak. Ishtirokchilar soni 20 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiq.

O‘yin boshlanishi oldidan boshqaruvchi hay’at a’zolari bilan tanishtiradi.

**Boshqaruvchi:** Ikkala guruh, tayyor ekan, o‘yin davomida biz ularni harbiychasiga «guruh» deb nomlaymiz. Endi Sizlarga birinchi topshiriqni beraman. Men uchgacha sanagunimcha, har bir guruh, bo‘yo‘yi bilan bir qatorga saf tortishi zarur.

Ushbu vazifa boshqaruvchi tomonidan beriladi. Guruhlar saf tortadilar. Boshqaruvchi har bir guruh, a’zolaridan birini guruh kattasi (komandiri) etib tayinlaydi (yoki guruh, a’zolari tomonidan saylanishi mumkin. Hay’at a’zolari guruhlarning saflanishini baholaydilar. Baholar qo‘yib boriladigan maxsus stendda birinchi ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** Har ikkala guruh o‘yin-musobaqani boshlanishiga tayyor. Endi biz ularni harbiy xizmat bo‘yicha bilimlarini tekshiramiz. Qani aytingchi, har kuni harbiy xizmat nimadan boshlanadi?

**O‘yin ishtirokchilari:** Ertalab maxsus signal yordamida o‘rindan turish va badan tarbiya qilishdan boshlanadi.

**Boshqaruvchi:** Biz ham o‘yin-musobaqani badan-tarbiyadan boshlaymiz.

Boshqaruvchi har bir guruhga arqondan qilingan xalqani beradi. Guruhning har bir a’zosi navbatma-navbat arqon xalqani o‘zlaridan o‘tkazish bir-birlariga uzatishlari kerak. Arqon xalqa bir tomonidan pastga qarb kiyiladi so‘ng oyoqdan o‘tkazilib keyingi askarga uzatiladi. Hay’at a’zolari g‘oliblarni aniqlaydilar. Maxsus stendda ballar qo‘yiladi.

**Boshqaruvchi:** Bu o‘tkazilgan musobaqa guruhlarning o‘yinni davom ettirishga tayyor ekanliklarini ko‘rsatdi. Xo‘sish, badan tarbiyadan so‘ng nima qilinadi?

**O‘yin ishtirokchilari:** Yuvinish.

**Boshqaruvchi:** U holda kim tezroq yuvinib artinadi? Guruh a’zolari askarlarning ertalabki yuvinish va artinish holatlarini pantomima (ovozsiz harakatlar) shaklida namoyish etadilar.

Hay’at a’zolari pantomima harakatlarini ko‘radilar va baholaydilar. Maxsus stendda mos ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** Askarlar keyin nima qiladilar?

**O‘yin ishtirokchilari:** Oshxonaga ertalabki nonushtaga boradilar.  
**Boshqaruvchi:** Askarlar, odatda, oshxonaga qanday boradilar?

**O‘yin ishtirokchilari:** Askarlar oshxonaga saf tortib, qo‘sinq aytib boradilar.

**Boshqaruvchi:** U holda har bir guruh alohida-alohida bo‘lib oshxonaga saf tortib, qo‘sinq aytib boring. Kaysi guruh bu topshiriqni yaxshi bajarar ekan? (har bir guruh saf tortib qo‘sinq aytib sahnada yuradilar).

Topshiriq bajariladi, baholanadi, maxsus stendda ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** Xo‘s, ertalabki nonushtadan so‘ng askarlar nima bilan shug‘ullanadilar?

**O‘yin ishtirokchilari:** Turli mashg‘ulotlarda qatnashadilar.

**Boshqaruvchi:** Men ham hozir Sizlarni turli mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan xonalarga taklif etaman. Birinchi bo‘lib aloqachilarni. taklif etamiz. Kim arqonni tezlik bilan yog‘ochga o‘ray oladi? (boshqaruvchi 5- 6 metr uzunlikdagi ikki tomoniga yog‘och o‘rnatilgan arqonni aloqachilarga beradi va berilgan signal asosida ularning ikki tomondan markazga harakat kilib yurishlari uchun o‘rtada uchrashuv joylarini belgilab beradi. Arqonni yogochga o‘rab belgilangan markazga birinchi bo‘lib yetib kelgan aloqachi g‘olib hisoblanadi).

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

Boshqaruvchi davraga piyoda askarlarni taklif etadi (2 kishi). Kim-kimni torta oladi - tortishmachoq vazifasini qo‘yadi.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

Boshqaruvchi endi desantchilar mashg‘ulotini ko‘rishni taklif etadi va desantchilarga har bir desantchi qo‘lidagi sharni o‘zidan uzokroqqa puflab uchirish topshirig‘ni beradi.

Sharni puflab eng uzoqqa uchira olgan desantchi g‘olib hisoblanadi.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

Boshqaruvchi snayperlar mashg‘ulotiga o‘tish maqsadida ularga kichik koptokchani doira (yoki xalqa) ichiga tushirish topshirig‘ini beradi. Bu topshiriq uch marta bajariladi.

**Boshqaruvchi:** Menimcha, tushki ovqatlanish vaqtি ham bo‘ldi. Demak, navbat oshpazlar musobaqasiga. Musobaqaga har bir guruhdan bittadan oshpaz taklif etiladi va ular oshxonada askarlar uchun tayyorlanadigan taomlarning turlarini ketma-ket to‘xtamay aytishi lozim. To‘xtamay taom turini ko‘p ayta olgan oshpaz g‘olib hisoblanadi.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

Boshqaruvchi davraga har bir guruhdan bittadan mina qo‘yuvchi va bittadan saper (minadan tozalovchi)ni taklif etadi. Mina qo‘yuvchilar kubiklar yoki «Gorodki» o‘yinida foydalaniladigan predmetlarini yerga har xil tartibda qo‘yib chiqadilar. Saperchilar esa ko‘zlarini bog‘langan holda yurib, ularni terib chiqadilar, ya’ni yerni minadan tozalaydilar.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** Kechki dam olish vaqtি ham bo‘ldi. Har bir guruh dam olish vaqtini qanday o‘tkazish mumkinligini o‘ylab ko‘rib, ko‘rsatsalar yaxshi bo‘ladi. Askarlar bironbir voqeа yoki ertakni yoki askarlar hayotidan lavha ijro etishlari, ko‘rsatishlari, pantomima qilishlari mumkin.



Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** Askarlar kechki uyquga ketdi (guruh askarlari stillarga joylashib uyquga ketadi)lar. Ular uxbab yotgan vaqtida harbiy qismda qanday kutilmagan voqealar bo‘lishi mumkin?

**O‘yin ishtirokchilari:** Chaqiriq!

**Boshqaruvchi:** Demak, bizning askarlar uchun ham - ChAQIRIQ!

Guruh askarlari chiqiriq e’lon qilinishi bilan o‘rinlaridan turadilar va stillarga ilib qo‘yilgan harbiy kiyimlarni tezlik bilan kiyadilar. Tez va to‘g‘ri kiyina olgan guruh askarlari g‘olib hisoblanadi.

Topshiriq bajariladi, baholanadi, stendda ballar paydo bo‘ladi.

**Boshqaruvchi:** Endi barcha askarlar saf torting! So‘z hay’at a’zolariga!

Hay’at a’zolari to‘plangan ballarni e’lon qiladilar. Mukofotlaydilar. Yakun yasaydilar. Askarlar o‘z joylariga qaytadilar.

**Izoh:** *Bir soatlik o‘yin-musobaqaga mo‘ljallangan musobaqalar musiqa sadolari ostida o‘tkaziladi. O‘yinga mo‘ljallangan topshiriqlarni joylardagi imkoniyat, o‘quvchilarning qiziqishi va yoshlariga qarab tanlash kerak. Zaruratga qarab musobaqa shartlarning sonini kupaytirish yoki kamaytirish, osonlashtirish yoki qiyinlashtirish mumkin.*

### **3.7-§. «Men askar bo‘laman» o‘yin-musobaqasi dasturi**

**Tashkiliy ishlar:** Sport zal yoki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar zali bayrmona bezatiladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzları, vatan himoyachilari bo‘lmish yosh askarlar plakatlari qo‘yiladi.

Fon musiqasi yangraydi va mehmonlar kutib olinadi.

Jangovor kuy orqali ikki boshlovchi saxnaga ko‘tariladi.

**Boshlovchi:** Xayrli kun, aziz bolalar va aziz o‘qituvchilar!

Qadim qadim zamonlardan beri kuchli va jasur xalqimiz doimo o‘z Vatanini doimo himoya qilib kelgan. Bugungi kunda bizning vazifamiz ota-bobolarimizning harbiy jasorati va qahramonliklari xotirasini asrab-avaylash, ularning oljanoblik, azmu shijoat va jasoratidan ibrat olib vatanga sadoqatli farzand bo‘lishdir. Aynan shu maqsadda bugungi kunda «Men askar bo‘laman» o‘yin-musobaqasi o‘tkazilmoqda.

Xo‘sh, diqqat qiling! Men hammani o‘rnidan turishni so‘rayman.

*O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi yangraydi.*

**Boshlovchi:** O‘zbek xalqining Vatanga bo‘lgan muhabbatি fidokorona va cheksizdir. Xalqimiz Vatan xavf ostida bo‘lganda, doimo o‘limga e’tibor qilmay, butun kuchini uning himoya qilishga bag‘ishlagan. Darhaqiqat, bu jasur va dovyurak xalqimiz uchun yurak amri bo‘lib kelgan. Tarixan, qanday qiyinchiliklar bo‘lmasin, Vatanimiz ota-bobolarimiz zamini bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi.

Millatimiz qahramonlari, bugungi va kelajakdagi Vatan himoyachilariga shon-sharaflar bo‘lsin!

*Shu o‘rinda o‘quvchi-yoshlar tomonidan O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymonning «Askarlar» nomli jangovar qo‘srig‘i kuyylanadi.*

**Boshlovchi:** Xurmatli o‘quvchi-yoshlar Sizlar bizning Vatanimiz - O‘zbekistonning kelajakdagi himoyachilarisiz. Himoyachilar kuchli, jasur, epchil va albatta aqli bo‘lishi kerak. Buning uchun esa, har bir yosh yigit-qiz bolalikdan o‘z irodasini mustahkamlashi, o‘z shaxsiyatida jasorat, oljanoblik, qat’iyatlilik va halollikni rivojlantirishlari kerak.

Bolalar, bugun biz «*Men askar bo‘laman!*» o‘yin-musobaqasini o‘tkazamiz.

Topshiriqni bajarish orqali siz yulduzlarga ega bo‘lasiz va tadbirimiz oxirida to‘plangan yulduzlar soniga qarab g‘olibni aniqlaymiz.

**Boshlovchi:** Askar tez bo‘lishi kerak. Agar tunda signal eshitilsa, u yotoqdan sakrab, bir daqiqada kiyinishi kerak. Keling, askar kabi tez kiyinishga harakat qilaylik.

Birinchi musobaqaga har biri 10 kishidan iborat 2 ta jamoani taklif qilaman.

### **1-Shart «Jangovar oglantirish»**

**Rekvizitlar:** 2 ta bayroqcha, 2 ta harbiy kiyim, 2 ta avtomat maketi, 2 ta stul, 2 ta halqa (tunnel uchun).

Stulga 2 ta avtomat maketi, 2 ta harbiy kiyim qo‘yiladi. Signal berilishi bilan har ikki jamoadagi birinchi raqamdagisi ishtirokchilar kiyinadi, tunnellarga emaklaydi, nishonni aylanib chiqadi va qo‘lidagi bayroqchani keyingi ishtirokchi - sherigiga tutqazadi. Uning sherigi ham xuddi shu vazifani bajaradi.

Vazifani birinchi bo‘lib tugatgan jamoa g‘alaba qozonadi (*yulduzcha oladi*).

**Shart yakuni.** *Fon, ritmik musiqa tovushlari. Mazkur shartda yutgan jamoaga yulduzlar topshiriladi.*

**Boshlovchi:** Harbiy xizmatchilar nafaqat tez kiyinishni, balki nishonga aniq otishni ham bilishlari kerak. Endi siz qanday otishingizni tekshiramiz. Shunga ko‘ra har ikki jamoani sahnaga taklif qilaman.

### **2-Shart «Xandaqda olov bor»**

**Rekvizitlar:** 2 ta matras, 2 ta halqa, 10 ta shar - har bir jamoa uchun.

Har bir jamoa a’zolari navbatma-navbat egilgan holatdan nishon (ikki-uch metr masofadagi halqa) ga to‘p tashlashadi. Eng ko‘p zarba bergen jamoa g‘olib hisoblanadi.

Vazifani birinchi bo‘lib tugatgan va eng ko‘p xalqaga to‘p tushura olgan jamoa g‘alaba qozonadi (*yulduzcha oladi*).

**Shart yakuni.** *Fon, ritmik musiqa tovushlari. Mazkur shartda yutgan jamoaga yulduzlar topshiriladi.*

**Boshlovchi:** Harbiy xizmatchilar nafaqat tez kiyinishi, nishonga aniq urushi balki zukko va topqir ham bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun ham 3-shartda aynan sizlardagi xushyorlik, topqir va zukkolik qobiliyatları tekshiriladi. Shartni bajarish uchun har ikki jamoa sahnaga taklif etiladi.

### **3-Shart «Nima o‘zgardi?»**

**Rekvizitlar:** *O‘quv ekrani va unga yuklangan turli predmet rasmlari.*

**Boshlovchi:** Oldingizda turgan ekranda turli xil narsalar bor. Ularga bir daqiqaga qarang, ularni eslab qolishga harakat qiling, keyin yuz o‘giring. Men bir nechta narsalarni almashtiraman va nima g‘oyib bo‘lganini aytishingiz kerak.

Musobaqa amalga oshiriladi va eng ko‘p nima o‘zgarganini aniqlay olgan jamoa g‘alaba qozonadi (*yulduzcha oladi*).

**Shart yakuni.** *Fon, ritmik musiqa tovushlari. Mazkur shartda yutgan jamoaga yulduzlar topshiriladi.*

### **4-Shart «Jangovor qo‘sinq»**

**Boshlovchi:** Har bir askar qo‘sinq ayta olishi, jamoaga jangovor ruh bera olishi lozim. Shunga ko‘ra qatnashchi jamoalar o‘zlari tanlagan jangovor qo‘sinqlarini safda bir ovozdan ijro etadilar.

Eslatma, qo‘sinq jangovor ruhda bo‘lishi, har bir jamoa a’zosi uni ijrosida qatnashishi, qo‘l va tana harakatlari qo‘sinq ohangi va ritmiga mos kelishi hamda eng asosiysi qo‘sinq ijrosi hakamlar xay’ti va tomashabinlarga ruh bera olishi lozim.

Jangovor qo‘sinqlar ijro etilgach eslatmada keltirilgan mezonlar asosida baholanadi va yuqori baho olgan jamoa g‘alaba qozonadi (*yulduzcha oladi*).

**Shart yakuni.** *Fon, ritmik musiqa tovushlari. Mazkur shartda yutgan jamoaga yulduzlar topshiriladi.*

**Boshlovchi:** Hurmatli musobaqamiz ishtirokchilari va aziz tomashabinlar! Albatta, butun musobaqa davomida har bir shart yakuniga ko‘ra g‘olib bo‘lgan jamoa yulduzlar yig‘ib borganiga guvoh bo‘ldingiz.

Endi xal qiluvchi lahzalar yetib keldi. Qatnashchi jamoalardan o‘zlari yiqqan yulduzlarni chiqarishlarini so‘rayman.

Yulduzlarining sonini hisoblang(*yulduzlar sanaladi*).

Umumiyligi xisobla g‘olib bo‘lgan jamoa estalik sovg‘alari va musobaqa kubogi bilan taqdirlanadi.

**Oldindan tayyorlangan ishtirokchi jamoalar birgalikda quyidagi jangovor chaqiriqni aytishadi:** Bugun biz do‘stlik, o‘zaro tushunish va mehnatsevarlik haqiqiy mo‘jiza yarata olishini ko‘dik.

G‘alaba faqat bitta vazifani – yer yuzida, o‘z oilasida hayotni, tinchlikni saqlashni birgalikda va birgalikda bajarganlarga beriladi.

Urush bolalarga ham, kattalarga ham kerak emas!

U sayyoramizdan yo‘q bo‘lib ketsin!

Dunyoda tinch yulduzlar porlasin, Do‘stlik chegara va to‘sinq bilmasin.

Biz tinch osmon ostida yashashni va xursand bo‘lishni va do‘st bo‘lishni xohlaymiz!

*Fon, ritmik musiqa tovushlari sadosi ostida boshlovchi musobaqani yakunlaydi:*

**Boshlovchi:** Bolalar, bizning uchrashuvimiz o‘z nihoyasiga yetdi. Biz bilinki, faqat tinchlikda yashashni xohlaymiz. Biz yer yuzida umuman urush bo‘lmasligini orzu qilamiz. Ammo bizga har doim kuchli, jasur va oljanob yigitlar - Vatan himoyachilari kerak bo‘ladi. Bolalar, siz bizning Vatanimiz himoyachilari ekanligingizni unutmang. Bir-biringizni hurmat qilishingizni, bir-biringizga g‘amxo‘rlik qilishingizni tilayman, shunda biz katta kuchga ega bo‘lamiz. Xayr. Salomat bo‘ling.

## GLOSSARY

**Avtoritar texnologiya** - pedagog yagona sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi, ta'lim oluvchilar esa faqatgina «ob'ekt» vazifasini bajaradi.

**Akademik qobiliyat** - barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik.

**Baholash** – o'rganilgan materialni konkret maqsad uchun baholash ko'nikmasini anglatadi.

**Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

**Bilimlar bazasi** – muayyan bir soha (yo'nalish, fan, bob, bo'lim, mavzu, tushuncha va shu kabilar) bo'yicha to'plangan bilimlar va ularning kompyuter xotirasida mujassamlashtirilishi va qayta ishlangan axborotlarni saqlashga mo'ljallangan bilimlar majmui.

**Bilimlar banki** – bu ma'lumotlar majmularini bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi o'quv rejasidagi fanlar bloklari bo'yicha tizimlarga ajratib, ular asosida shakllantirilgan bilimlar majmu.

**Bilish** – o'rganilgan materialni konkret faktordan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi.

**Bilish qobiliyati** – pedagogning ta'lim jarayonining ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, ota-onalar, hamkasblar va ta'lim muassasasining rahbarlari bilan oson muloqotga kirishish, ular bilan munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradigan individual psixologik xususiyat.

**Dastur** – o'quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjat.

**Didaktik qobiliyat** - bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni ta'lim oluvchilarga tushuntira olish. Didaktika - yunoncha «didacticos» so'zidan olingan bo'lib, «o'rgatish», «o'qitish» degan ma'nolarni bildiradi.

**Didaktika** - pedagogikaning o‘qitish nazariyasi; didaktika ta’lim nazariyasi.

**Jest** (gavda, qo‘l va oyoq harakatlari) – muayyan hodisa yoki ob’ektga nisbatan munosabatning gavda, qo‘l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi.

**Ijodiy izlanish** – pedagog boshchiligidagi qo‘yilgan muammolar, masalalarni yechishning yo‘llarini faol izlashni tashkil etish usuli, fikrlash jarayoni produktiv (unumli) xarakterga ega bo‘ladi.

**Ilmiy bilim** – ta’lim-tarbiyani takomillashtirish muammolari yechimlarini topishda qo‘l keladi va u tizimli, asosli narsa – hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo‘ladi.

**Imitatsion o‘yinlar** – bo‘lim, sex, korxona tashkilotning faoliyati imitatsiya qilinadi. Imitatsion o‘yinlar ssenariyasi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va ob’ektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tavsiotlarni o‘z ichiga oladi.

**Individual yondashish** – bu pedagogik tamoyilga ko‘ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

**Individual o‘qitish** – bu o‘quv jarayonini tashkil etishning shakli bo‘lib, bunda pedagog va tlaba yakkama-yakka o‘zaro ta’sir ko‘rsatadilar, tlaba o‘quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k) yordamida uzluksiz mustaqil ta’lim oladi.

**Individual o‘qitish** – bu o‘quv jarayonining tashkil etishning shakli bo‘lib, bunda pedagog ta’lim oluvchilar bilan yakkama-yakka shug‘ullanadi, ta’lim oluvchi o‘quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta’lim oladi.

**Interfaol** - ingliz tilidagi «interact» (rus tilida «interaktiv») so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy nuqtai nazardan «inter» – o‘zaro, «act» – harakat qilmoq degan ma’nolarni anglatadi.

**Interfaol ta’lim** – bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan ahloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatlarini tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

**Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi** – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitish jarayoni.

**Konstruktiv qobiliyat** - o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati.

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

**Kundalik bilim** - sog‘lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi va insonning atrof – muhitga moslashuvchi, uning hatti – harakatlari va oldindan ko‘ra bilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Ko‘nikma** – 1) shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati; 2) o‘zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat.

**Qobiliyat** – shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyat.

**Maqsad** – qo‘ylgan muammo (maqsad) yechimiga intilishi yo‘nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi.

**Malaka** – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

**Mahorat** (arab. «mohirlik», «ustalik», «epchillik») – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.

**Ma'lumot** – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Metod** - (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «yo'l» degan ma'noni anglatadi) maqsadga erishish yo'lini bildiradi.

**Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

**Mimika** (yunon. «mimikos» – «taqlidiy») – yuz muskullari harakatlari orqali shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, kayfiyati hamda mavjud vogelikka munosabatini ifodalashi.

**Modul** – bu fanning bir yoki bir necha tushunchalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, ishlab chiqilgan prinsiplar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o'quv materiali.

**Nazariy bilim** – empirik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi.

**Natija** – dars mashg'ulotlari jarayonida rejajashtirilgan xulosaga kelingan va ta'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir.

**Nutqiy qobiliyat** - ixcham, ma'noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq.

**Pantomimika** – pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko'rsatishga, ma'lum qiyofa orqali gavlantirishga imkon beradi gavda, qo'l va oyoqlarning harakati.

**Pedagogik mahorat** - o'kituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasi umumlashmasi bo'lib, muayyan bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisi.

**Pedagogik mahorat** - 1) kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; 2) shaxsning kasbiy sifatlari, layokat kobiliyatları majmui; 3) san'at darajasidagi maxorat; 4) pedagogik mohirlilik, san'at va

bilimdonlikni ifodalovchiatama. (Pedagogik ensiklopediya 2017 y. 3 jild.)

**Pedagogik taksonomiya** – (grek so‘zlari «taxis» - tartib bilan joylashtirish va «nomos» - qonundan kelib chiqqan) – o‘quv maqsadlarining toifalarga va ketma-ketlik darajalarga tasniflab, o‘quv fani bo‘yicha maqsadlarining aniq tiziimni tuzish.

**Pedagogik takt** - (lot. «tactus» – «dahl qilish», «dahldorlik», «his etish», «tuyg‘u») pedagogning ta’lim oluvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondoshish malakalariga egaligi.

**Pedagogik texnologiya** - ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonini inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda yaratish, tatbiq etish va aniqlash tizimidir (YuNESKO).

**Pedagogika** - «bola yetaklovchi» degan ma’noni bildiruvchi yunoncha «paydogogos» so‘zidan kelib chiqqan. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari - shaxs kamolotini ta’minlash, ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi.

**Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

**Rivojlanish** – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**Rolli o‘yinlar** – ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni.

**Sintez** – elementlardan, bo‘limlardan yangilikka ega bo‘lgan yaxlitlikni yaratish ko‘nikmasini anglatadi.

**Tabaqalashtirib o‘qitish** - o‘quv jarayonini tashkil etishning shakli sifatida umumiy didaktika prinsipariga asoslangan bo‘lib, maxsus tashkil ettirilgan ta’lim oluvchilarning gomogen guruhlarida, o‘quv jarayonini ixtisoslashtirishni ta’minlaydi.

**Tarbiya** - aniq maqsad asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Tahlil** – bu toifa o‘rganilgan material tarkibini bo‘laklarga bo‘lib, uning tuzilmasini yaqqol ko‘rsatish ko‘nikmalarini anglatadi.

**Tashkilotchilik qobiliyati** - o‘quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste’dodi.

**Ta’lim maqsadlari** - muayyan ta’lim jarayoni yakunida ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni belgilaydi.

**Ta’lim berish** – ta’lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo‘lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir

**Ta’lim vositalari** - o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarni beruvchi, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi har qanday axborot tashuvchilardir.

**Ta’lim mazmuni** – insonni o‘qitish jarayonida egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi va harakteri.

**Ta’lim metodi** – bu ta’lim jarayonida pedagog va ta’lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.

**Ta’lim** – ta’lim oluvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon.

**Texnologiya** - yunoncha ikki so‘zdan – «texnos» (techne) – mahorat, san’at va «logos» (logos) – fan, ta’limot so‘zlaridan tashkil topgan.

**Tizim** - o‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan qismlardan tashkil topgan tuzilma.

**Tushunish** – uning ko‘rsatkichi, materialni bir shakldan boshqa shaklga o‘tkazilishi bo‘lishi mumkin materialni intepretatsiyasi yoki hodisa va voqealarning kelajagini oqibatlar bashorat qilish.

**Tushuntirish-ko‘rgazmali yondashuv** – pedagoglar mashg‘ulot davomida o‘quv uslubiy adabiyotlardagi ko‘rgazmali vositalar orqali «tayyor» holda bilim oladilar.

**O‘z-o‘zini rivojlantirish** – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

**O‘qitish** – insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalalar yig‘indisini o‘zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

**O‘qish** – bu ta’lim oluvchilarning voqelikni bilish davomida ma’lum bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni rejali o‘zlashtirish jarayoni.

**Shaxs** – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulqatvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyat a’zosi.

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi** - ta’lim oluvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. «Casestudy» uslubi: nazariya, amaliyot, tajriba. – T.: «Tafakkur qanoti» nashriyoti, 2018.
2. Abdullaeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish. – Farg‘ona: FarDU, 2018.
3. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2008.
4. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. – T.: «O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi» nashriyoti. 2006.
5. Zunnunov A. va boshqalar. Pedagogika tarixi / –T.: Sharq, 2000.
6. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
7. Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: «Iste’dod» jamg‘armasi, 2019.
8. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A. B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari . - T.: «Sano standart» nashriyoti, 2021.
9. Muxina S.A., Solovyova A.A. Sovremennye innovatsionnye texnologii obucheniya. – M.: «GEOTAR-Medija», 2018.
10. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari . - T.: 2021.
11. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: «Tafakkur-bo`stoni» nashriyoti. 2011.